

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**MANSUROVA DILDORA BAHODIROVNA**

**MAVZU: “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA AN‘ANA VA  
O‘ZIGA XOSLIK**  
(Bitiruv malakaviy ishi)

**Ilmiy rahbar:**

**M.Q. Muhiddinov**

Malakaviy bitiruv ishi amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining 2016 yil \_\_\_\_ maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (Bayonnoma № \_\_\_\_)

**Kafedra mudiri:**

**D.I. Salohiy**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016 yil \_\_\_\_ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va \_\_\_\_ foiz bilan baholangan (Bayonnoma \_\_\_\_)

**YaDAK raisi:**

\_\_\_\_\_

**A‘zolari:**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Samarqand – 2016**

## **REJA:**

### **Kirish:**

#### **I BOB. YUSUF ALAY-HISSALOM HAQIDAGI QISSANING DINIY MANBALARI.**

- 1.1. Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni xususida;
- 1.2. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida diniy sujet va badiiy to‘qima.

#### **II BOB. JOMIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA AN’ANA VA O’ZIGA XOSLIK.**

- 2.1. A.Jomiy va Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Yusuf komil inson sifatida;
- 2.2. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Zulayho timsolining qiyosiy tahlili.

### **XULOSA.**

### **ADABIYOTLAR RO‘YHATI.**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. YUSUF ALAYHIS-SALOM HAQIDAGI QISSASINING DINIY MANBALARI</b>	
1.1. Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni xususida .....	11
1.2. Durbek “Yusuf va Zulayho” dostonida diniy syujet va badiiy to‘qima <b>Ошибка! Закладка не определена.</b>	
<b>II BOB. ABDURAHMON JOMIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA AN’ANA VA O’ZIGA XOSLIGI</b>	
2.1. Jomiy va Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Yusuf komil inson sifatida .....	40
2.2. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Zulayho timsolining qiyosiy tahlili .....	47
<b>XULOSA</b> .....	54
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	58

## KIRISH

### KIRISH

“Yusuf va Zulayho”lar, ya’ni bu singari dostonlar, ular agar gullar nomi bilan atalganlarida, men ularni xazonsiz hamisha gulfom – doimo ochilib, turadigan gullar deb atagan bo‘lar edim.

(Turob To‘la.)

**Mavzuning dolzarbligi.** Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy shunday degan edi: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oinayi hayoti tili va adabiyotidir”. Shu boisdan mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan mamlakat sifatida namoyon bo‘ldi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’daniy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotida shu qisqa davr ichida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishiga zamin tayyorladi. Ma’lumki, davlatimiz istiqlolning ilk kunlaridan boshlab, taraqqiyotning o‘ziga xos va mos yo‘llarini tanlab oldiki, bu yo‘l o‘zining har jihatdan asosli ekanligini isbotladi. Shuni aytishimiz kerakki, O‘zbekiston davlati va bu mamlakatda yashayotgan xalq va millatlar tarixi nihoyatda uzoq zamonlarga borib taqaladi. Unda tarixiy-taraqqiyotning barcha sinovlari bosib o‘tilgan. Mamlakatimiz ko‘plab bosqinlarni ham, milliy ozodlik uchun kurashlar tarixini ham boshidan kechirgan. Ilm-fan, madaniyat, falsafa, adabiyot va umuman, jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan barcha sohalarda yuksak yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Bu hududdan jahon ilm va madaniyatini ravnaq ettirishga xizmat qilgan buyuk olimlar, mutafakkirlar, ilmiy-badiiy ijod sohiblari yetishib chiqqan. E’tiborli tomoni shundaki, mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrlaridan boshlab Prezidentimiz Islom Karimov e’tiborini ma’naviyatimiz, madaniyatimiz, uzoq asrlik ma’rifatchiligimiz tarixini o‘rganishga qaratdi va shu

yo‘l bilan o‘zlikni anglash, dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnimizni topish lozimligini takror va takror ta’kidlab o‘tdi. Milliy istiqlol mafkurasining poydevori qadim ma’naviyatimiz va milliy an’analarimiz ekanligini uqtirdi. Milliy istiqlol g‘oyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishini<sup>1</sup>, shuning bilan o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kununi unutgan millatning esa, kelajagi yo‘q<sup>2</sup> ekanligini aytib o‘tdi. Bu esa ma’naviyatning asoslaridan bo‘lgan adabiyotimizning barcha jihatlarini yangicha ruhda o‘rganishga hamda tahlil va talqin etishga keng yo‘l ochib berdi. O‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham muhim talablarni qo‘ydi. Shu barobarida ajdodlarimiz me’rosini yangicha ruhda o‘rganish muhim masalalardan biri bo‘lib qoldi.

O‘rta asrlar musulmon Sharq olamining buyuk mutafakkirlari qatorida mintaqamiz adabiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o‘zining boy va bebaho adabiy-badiiy, falsafiy-ijtimoiy, diniy-irfoniy va ilmiy-nazariy merosi bilan alohida o‘rin tutgan, “Yusuf va Zulayho” dostonlarining o‘ziga xos talqinda asar yaratgan Durbek va Abdurahmon Jomiylarning ijodini o‘rganish hamda ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.

Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida: “Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur”,- deya ta’kidlaydi. “Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida esa : “Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy – axloqiy har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi”, - deb ta’kidlagan edi. Prezidentimiz milliy dastur haqida so‘zlagan nutqida uning maqsad va vazifalarini aniq ko‘rsatib: milliy dasturning maqsad va vazifalari shaxsni shakllantirishga qaratilganini, shaxs islohotlarning asosiy maqsadi va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 39-bet.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 4-бет.

harakatlantiruvchi kuchi ekanini, milliy dasturdan kuzatilgan maqsad va vazifalarning to‘la amalga oshishi, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib kelishini, jamiyatdagi yangi shaxs – komil insonlar vujudga kelishini aytadi<sup>3</sup>.

Shaxsni barkamol bo‘lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma’naviy dunyosini boyishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri – bu badiiy adabiyotdir. “Yusuf va Zulayho” mavzusining jahon xalqlari adabiyotidagi, jumladan, turkiy xamda forsiyazon xalqlar adabiyotidagi sayri, ayni jarayonning tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, Durbek va Jomiylarning “Yusuf va Zulayho” dostonlarining g‘oyaviy-ma’naviy, ilohiy-adabiy sarchashmalari, badiiyatini o‘rganilganligi va shu mavzuda yozilgan ayrim asarlar bilan qiyosiy tipologik tahlil qilish mazkur malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadidir.

Ta’kidlash joizki, asrlar davomida payg‘ambarlar sarguzashti faqat ilohiy kitoblar doirasida qolib ketgan emas. Bunday ibratli lavhalar axloqiy — ta’limiy olamning ko‘rkam namunasi sifatida insonlar qalbiga, shuningdek, og‘zaki hamda yozma badiiy adabiyotga teranroq kirib borgan. Yangi-yangi xalqona va yozma badiiy asarlarning yaratilishi uchun g‘oyaviy-ma’naviy sarchashma vazifasini o‘tagan.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Tavrot, Injil, Qur’oni Karim, Abulqosim Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni, Abu Ali ibn Sinoning “Yusuf qissasi”, Qul Alining “Qissai Yusuf”, Shayyod Hamzaning “Yusuf va Zulayho”, Rabg‘uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom”, Durbek va Jomoiyning “Yusuf va Zulayho” dostonlari tadqiqotimiz uchun asosiy manba vazifasini bajardi. Shuningdek, og‘zaki xamda yozma badiiy adabiyotga tegishli bir qator qo‘lyozma asarlarga ham murojaat qilindi.

Ularni ilohiy-adabiy manbalarga yaqinligiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

---

<sup>3</sup> Зуннунов А., Толипов Ў. Миллий кадрятлар асосида ўқувчи шахсини шакллантириш.-Т.: “Шарк”,2006.5- б.

a) Qur'onning Yusuf surasi ta'sirida, undan uncha uzoqlashmagan holda yaratilgan badiiy asarlar. Bu silsilaga Abulqosim Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Qul Ali, Shayyod Hamza, Durbek va Nosiruddin Rabg'uziy asarlarini kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, bu jarayon diniy qissaning badiiy ishlanish tarixini birinchi bosqichi sanalib, VII- XIII asrlarni qamrab oladi. Rabg'uziy hamda Durbek ijodiy izlanishlari bilan intixot topadi.

b) Qur'ondagi Yusuf surasi mazmunidan bir muncha uzoqlashgan va Sharq xalqlari badiiy adabiyotida shakllangan, adabiy an'analar ta'sirida qayta ishlash asosida yaratilgan asarlar. Bu yo'nalishda asar yaratish XIV asrning ikkinchi yarmidan to hozirgacha davom etadi. Bunday asarlar Yusuf va Zulayho sayyor sujetidagi badiiy yaratmalar silsilasini tashkil qiladi.

Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyatlar asosida Firdavsiy (X-XI asr), Baxtiyoriy (X asr), Shayyod Hamza (XIII), Ali (XIII asr), Suli Faqix (XIII), Shahobiddin Oshiq (XIV), Dariy (XIV), Durbek (XV), A. Jomiy (XV), H.H. Chalabiy (XV), Nozim Xiraviy (XVII), Hoziq (XIX) va yana boshqa ko'pgina fors-tojik, o'zbek, turk, ozarbayjon shoirlari dostonlar yaratganlar. Dostonlarda har bir shoir o'z davrining muhim voqealari, axloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga intilganlar. Masalan, Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida shaharning qamal qilinish kartinasining berilishi, shuningdek dostonlarda Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa (masalan Yusuf va Zulayhoning qayta yosharishi), keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlari Zulayhoni go'zal qiz sifatida tasvirlaganlar.

"Yusuf va Zulayho" dostoni an'ana bo'yicha Durbekka tegishli deb kelinadi.

Fransuz olimi E.Bloshe doston Navoiyniki deydi. D.Voronskiy dostonni Ulug'bekka nisbat beradi. Afg'on olimi Juzjoniy Homidiy Balhiyga nisbat beradi. 1979 -yilda M.Diyoriy dostonni Yodgorbek Jahonmulk o'g'liniki deydi.

J.Lapasov XV asr shoiri «Sozlar munozarasi» asarining muallifi Ahmadiy bo'lsa kerak, - deydi.

“Yusuf-u Zulayho” dostoni haqidagi ilmiy tahlillar qo'llanmaning kengaya borishi natijasida adabiyotchi va tarixchi olimlar o'rtasida munozarali fikrlar ham yuzaga kela boshladi. Jumladan, asrimiz boshida “Yusuf-u Zuloyho” dostonining ilk tadqiqotchisi, fransiyalik Eduard Bloshe Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan sharq qo'lyozmalari tavsifini berar ekan, mazkur asarni Alisher Navoiy qalamiga mansub deb yozadi. Avtor bu fikrni bayon etishda quyidagi baytga asoslanadi:

Jami-i qur'an edi kan-i yaqin

Erdi' Ali sher-i haq-u shah-i din.

U so'ngi misradagi “Ali”, “sher” so'zlarini “Alisher” shaklida qo'shib o'qiydi va doston avtorligini Alisher Navoiyga noto'g'ri nisbat beradi. Chunki oxirgi misrada choriyorlarning so'ngisi bo'lmish xalifa Ali ibn Ali Tolib haqida fikr yuritilib, u “sher-i haq” {xudoning sheri}, “shohi-i din” {dinning shohi} deb ta'riflangan. Shu tufayli bu asarning Alisher Navoiy shaxsiyatiga hech bir daxldorligi yo'q.

Yusuf va Zulayho obraziga XX asrning yirik so'z ustalari Nozim Hikmat va T. Mannlar ham murojaat qilganlar. T. Mann “Yusuf va uning akalari” asarini, Nozim Hikmat “Go'zal Yusuf” asarini yaratdi. O'zbek shoiri Ramz Bobojon ham “Yusuf va Zulayho” nomli asar yaratgan. “Yusuf va Zulayho” dostonini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish dastlab Fitrat tomonidan boshlangan bo'lsa, keyingi davrlarda O.Sharafiddinov, S.Husayn, Oybek, E.Bertels, A.Sadiy, V. Abdullayev, Y. Zohidov, O. Sultonov, P. Shamsiyev, H.Zarifov, G'. Karimov, H. Yoqubov, H. Zunnunov, A. Suyumov, A. Akromov va boshqa olimlar tomonidan davom ettirildi. Sharq adabiyoti o'zining



nihoyatda boy merosiga ega. U uzoq asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib keldi. Bir asar doirasida ko‘plab muammolarni yoritish, badiiy asarning har bir obrazi, kompozitsion elementi serqirra mazmun va falsafiy tafakkur bilan bog‘liq bo‘lishi fors-tojik va turkiy tillardagi Sharq adabiyotining mukammalligini belgilovchi omildir. Bu xususiyat sayyor sujetli asarlar yaratish an‘anasida ko‘zga tashlanadi.

Sayyor sujet maqomida Sharq xalqlari adabiyotida “Yusuf va Zulayho”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhra” singari nodir durdonalarning xilma-xil namunalari yaratildi. Sanab o‘tilgan sayyor voqealarning ayrimlaridan o‘nlab, hatto yuzlab asarlar yaratildi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** “Yusuf va Zulayho” asarining yaratilish va o‘rganilish tarixini yoritish, uning badiiy qimmatini aniqlashni maqsad qilib olgan holda, quyidagilarni yoritish ishning asosiy vazifasi hisoblanadi. “Yusuf va Zulayho” mavzusining g‘oyaviy-ma‘naviy, ilohiy-adabiy sarchashmalari, badiyatini o‘rganish va shu mavzuda ungacha yaratilgan ayrim asarlar bilan qiyosiy-tipologik tahlil qilish mazkur bitituv malakaviy ishining asosiy maqsadidir. Ayni maqsadni yuzaga chiqarmoq uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim topildi:

- “Yusuf va Zulayho” asarining yaratilishi;
- “Yusuf va Zulayho” asarining o‘rganilish tarixi;
- Durbekning “Yusuf va Zulayho” asari mohiyati;
- “Yusuf va Zulayho” asarining tarixiy, ilmiy, didaktik ahamiyati;
- Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asari badiiyati;
- Asarning badiiy qimmatini va o‘ziga xos uslubi;
- Yusuf va Zulayho sarguzashtining diniy manbalardagi talqinlarini qiyosiy o‘rganish
- “Yusuf va Zulayho”ning Jomiy asarlari bilan uyg‘un hamda farqli jihatlarini imkon qadar batafsil tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish;

- dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, timsollar olamini imkon qadar kengroq o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

- shu asosda dostonning nafaqat "Yusuf va Zulayho" tarkibida, balki o'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyotidagi o'rnini belgilashdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot Yusuf va Zulayho mavzusining badiiy ishlanish jarayonini kuzatish asosida sayyor sujet tadrijiga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zahirida ma'lum nazariy xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, undan o'zbek mumtoz adabiyotining ilmiy tarixini yaratishda, badiiy adabiyot ta'limi mazmunini yanada teranlashtirishda, oliy va o'rta umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari uchun o'zbek adabiyoti tarixi fani bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, tavsianomalar ishlab chiqishda, maxsus kurslar o'qitishda g'oyaviy-axloqiy, mafkuraviy tashviqot va targ'ibot ishlarida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Asardagi payg'ambarlar va tarixiy shaxslar talqinini yoritib berish, asarning tarixiy, ilmiy, didaktik ahamiyati, badiiy qimmatini va o'ziga xos uslubi, shuningdek, she'riy san'atlarning o'rnini tahlil va tadqiq etish; uni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish bitiruv malakaviy ishning yangiligi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari.** Obektiv kuzatgan holda, qiyosiy-tarixiy, induktiv va deduktiv metoddan foydalanildi.

**Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi.** Kirish, 2 bob, to'rt fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 60 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. YUSUF ALAYHISSALOM HAQIDAGI QISSANING DINIY MANBALARI**

### **1.1. Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni xususida**

“Yusuf va Zulayho” - Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissasi. Asl manbasi – ilohiy muqaddas kitoblar: Tavrot, Injil va Qur’oni karim.

Qur’ondagi talqini birmuncha ixcham va badiiy shakllangan. Tavrotdagisi folklorga yaqin va qadimiy Misr afsonalariga borib taqalishi taxmin qilinadi. Sharqda keng tarqalgan qissaning bu varianti Qur’oni karimning 12 surasi asosida shakllangan bo‘lib, jamiki “Yusuf va Zulayho” qissa va dostonlarining ilhom manbai ushbu suradir. Ushbu qissa Qur’onda “ahsan ul-qisas” (qissalarning eng go‘zali) deya ta’riflanadi.

Mazkur qissa davrlar o‘tishi bilan Sharqda go‘zal adabiyot namunasi sifatida keng tarqaldi, ko‘plab yangi voqealar bilan boyib, alohida asar holida qalamga olinib boshladi. Sharqda (IX asrdan) 150 dan ortiq «Yusuf va Zulayho» doston va qissalari yaratildi. Shularning 45 tadan ortig‘i turkiy tilda yozilgan e’tiborga molikdir.

Xususan, eng mashhurlari qatorida Firdavsiy, Abulmuayyid Balxiy, Shahobiddin Am’aq, Shohin Sheroziy, Abdulloh Ansoriy, Xoja Mas’ud Iroqiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning qissa dostonlarini ko‘rsatish mumkin. Yusuf mavzusi sharq xalqlari adabiyotida birinchi marotaba buyuk fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy (934-1020) tomonidan ishlandi. Bu fikrni N.M.Mallaev ham o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida tasdiqlaydi: “Bu mavzuda yaratilgan eng qadimgi badiiy asarlardan biri Firdavsiy nomiga nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonidir.

Xuddi shuningdek, turli davrlarda turkiy adabiyotda ham shu mavzuda 50 ga yaqin asar ijod qilingan. Jumladan, Qul Ali, Nosiriddin Rabg‘uziy, Haydar

Xorazmiy, Mulla Yusuf Yorkandiy, Nozim Hiraviy, Sayqaliy, Xiromiy, Salohiy, Andalib, Hoziq kabi ijodkorlar qissa va dostonlar bitganlar.

O'zbek adabiyoti tarixida go'zal Yusuf mavzusi birinchi marta Ali ismli shoirni qiziqtirgan. Ali tomonidan Qur'ondagi asosiy voqealar ilgari suriladi. E.E.Bertelsning ko'rsatishicha, Ali Xorazmlik bo'lgan. U fors mualliflariga taqlid qilmasdan asar yozishga kirishdi. Uning asari xalq og'zaki ijodiga xos to'rtlik shaklida yozilgan. Bu shakl turk xalqlari og'zaki ijodiga juda yaqin. Alining qissasi mazmun tomonidan ham fors poeziyasi bilan bog'lanmagan. U Qur'on variantiga amal qiladi. Ali Qur'onda berilgan afsonaviy qissani turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun mohiyatidagi muhabbat talqinidir. Asar "Yusuf va Zulayho", "Qissai Yusuf alayhissalom" yoki "Qissai Yusuf payg'ambar" deya turlicha nomlanishiga va turli davrlarda, turli ijodkorlar tomonidan yozilishiga qaramay, unda ishq mavzusi so'fiyona talqinning eng jozibador namunasi bo'lib qolaverdi. Shu bilan birga, "Yusuf va Zulayho" dostonlari o'ziga xos sof insoniy muhabbatni tarannum etuvchi dunyoviy adabiyot namunasi hamdir.

Ushbu sujet asosida asarlar yaratish 20-asrda ham davom etdi. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy "Qiroat" kitobida bu qissani sodda til bilan qisqacha hikoya qilgan, Nozim Hikmat "Go'zal Yusuf" pyesasi, Ramz Bobojon "Yusuf va Zulayho" musiqali dramasini yaratdi. Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari XIX asrda Ogahiy tomonidan o'zbekchaga tarjima qilindi.

"Go'zal qissa" deb ta'riflanuvchi ushbu surada asosan Ya'qub (a. s.) ning 12-o'g'li va Yusuf (a.s.) ning boshidan kechirgan voqealari aks ettiriladi. Surada otalik va birodarlik mehri, ishq-muhabbat, ayollar makri, tush ta'biri, saxiylik va kechirimli bo'lish kabi insoniy xususiyatlar ajib uslubda o'z ifodasini topgan. Dastlab "Tavrot" va "Injil"da, so'ngra "Qur'on"da o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf nihoyatda go'zal, olijanob, dono shaxs

sifatida tasvirlanadi. Sharq xalqlari adabiyotining bir qancha yirik namoyandalari “Yusuf va Zulayho” nomida dostonlar yaratganlar. “Tavrot”ning birinchi kitobi Ibtidoda<sup>4</sup>Yusufning hasadgo‘y akalari tomonidan savdogarlarga qul qilib sotilishi, oqibat Yusuf Misr fir‘avning amaldorlaridan Potifarning xonadoniga kelib qolishi hikoya qilinadi. Potifarning xotini deyiladi, Zulayho nomi esa keltirilmagan. Yusufni sevib qoladi va unga izhori dil qiladi. Xojasiga sadoqatli Yusuf (Zulayho) ishqini rad qiladi. Alamzada Zulayho tuhmat qilib Yusufni zindonga tashlatadi. Zindonda Yusuf fir‘avning soqiysi va novvoyi bilan birga bo‘ladi. Ularning tushlari ta‘birini aytadi. Ma‘lum vaqtdan so‘ng fir‘avn qo‘rqinchli tush ko‘rib, ta‘birini so‘rash uchun Yusufni zindondan chiqaradi. Yusuf fir‘avga yurtda yetti yil to‘qchilik, yetti yil ocharchilik bo‘lishini aytib, to‘qchilikda g‘alla g‘amlashni maslahat qiladi. Fir‘avn bu ishlarni Yusufning o‘ziga topshiradi. Qahatchilik boshlangach boshqa ellardan ham Misrga g‘alla izlab odamlar kela boshlaydi. Yusufning akalari ham keladilar. Xullas, Yusuf o‘zini tanitgach, akalari undan kechirim so‘rashadi. Yusuf otasi va boshqa qarindoshlarini Misrga olib keladi. Yusuf dardida yig‘lab-yig‘lab ko‘r bo‘lib qolgan Yoqub o‘g‘li Yusufning barmoqlari ko‘ziga tekkach, ko‘ra boshlaydi. (Yusufning ko‘ylagini ko‘ziga surtish varianti ham bor.) Yusuf va Zulayho o‘rtasidagi munosabatlarga ham shoirlar turlicha yondoshganlar. “Qur‘on”da bir yuz o‘n bir oyatdan iborat bu sura Makkada nozil bo‘lgan va payg‘ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi suralardan biridir. Unda asosan Allohning payg‘ambarlaridan Yusuf ibn Ya‘qubning hayoti zikr qilinib, u zotning boshiga tushgan balolar, og‘a-inilari va begonalaridan ko‘rgan kulfatlari — chohga tashlanganlari, tuhmatga yo‘liqqanlari, zindonband bo‘lganlari haqida va bunday og‘ir ko‘rgiliklarga sabr-toqat qilishlari natijasida oxir-oqibat zindon azobidan xalos qilinib, butun Misr zaminining mulk-u xazinasiga ega bo‘lganlari xususida so‘z boradi.

---

<sup>4</sup> Инжил Тавротдан Ибтидо, Забур” Библияни таржима килиш институти” –Стокгольм: 1992, 76-77 б.

Bu sura Hud surasidan keyin — Muhammad alayhis-salom hayotlarining eng qora kunlarida — yaqinlari Hadicha va Abu Tolibdan ajragan, mushriklar tomonidan ozor-aziyatlar chekib, qiynalib yurgan kezlarida nozil bo'lgandir. Go'yo Alloh taolo o'zining suyukli payg'ambariga va qolaversa, u zotning barcha ummatlariga, agar boshlariga tushgan balo-yu kulfatlarga va diyonatsiz kimsalarning zulmu zo'ravonliklariga sabr-qanoat qilib o'zlarining haq yo'lidagi kurashlaridan tolmay, Allohning dinidan qolmay sobitqadam bo'lsalar, Parvardigori olam ularni zulmatlardan va tanglikdan xalos qilib, nurli, baxt-saodatli kunlarga yetkazajagini uqtirayotgandek. Bu suraning nazmu uslubida o'zgacha latofat, ayricha joziba mavjudki, islom olamidagi eng buyuk qalam ahllari undan mutaassir bo'lib, she'r-u dostonlar bitganlar, ulamolar esa bu sura xususida jild-jild kitoblar tasnif etganlar. Shunday asarlardan birida "Yusuf surasi jannat ahllari jannatda ham rohat bilan tilovat qilib yuradigan suralardandir", deyilgan bo'lsa, yana birida: "Har Qanday g'am-tashvishga botgan mahzun kishi Yusuf surasini eshitishi bilan orom-osoyish topur", deyiladi.

Qur'oni karimda qissalarning go'zali deb atalgan Yusuf qissasi juda qadimiy sujetlardan biri bo'lib, U dastlab Muso alayhissalomga nozil qilingan Tavrotning birinchi kitobiga, keyin Iso alayhissalom ta'limotini o'z ichiga olgan Injilga kiritilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Chahoryorlardan hazrati Umar bilan yetti Yahudiy o'rtasida bahs bo'ladi. Yahudiylar Tavrotni Qur'oni karimdan afzalroq deb hisoblaydilar va bunga Qur'oni karimda Yusuf qissasining yo'qligini sabab qilib ko'rsatadilar. Hazrati Umar jim qolib, keyin Muhammad alayhissalomga bo'lgan voqeani bayon qiladi. Muhammad alayhissalom hayol surib qolganda Jabroil kelib Yusuf qissasini aytib beradi. Bu qissa Qur'oni karimga "Yusuf surasi" bo'lib kiradi. Agar Tavrotning tarixi uch ming yildan ziyodroq ekanligi hisobga olinsa, qissaning xalq og'zaki ijodi yoki tarixiy voqelik sifatida shakllangan vaqti undan ham qadimiyroq zamonlarga borib taqaladi. Har holda bu sujetning qadimgi yahudiylar va misrliklar orasida shakllanganligi aniq.

Falastinda Yusufning onasi Rohil maqbarasi saqlanib qolganligi shundan guvohlik beradi. Har uchala ilohiy kitobda ham Zulayho obrazi uchramaydi, asosiy e'tibor Yusuf sarguzashtlari orqali insoniy axloq va odob masalalarini yoritishga qaratilgan. Tavrotda va Injilda Fir'avnning saroy soqchilari boshlig'i va misr hokimi Po'tifarning xotini, Qur'oni Karimda Yusufni sotib olgan kishining ismi Qitfiyr xotini Yusufni sevib qolishadi. Aftidan, xalq og'zaki ijodi asarlarida uning ismi Zulayho deb yuritilganligi uchun Tavrot, Injil va Qur'oni Karim sujetlari asosida shakllangan yozma adabiyot namunalarida hamda tafsirlarda uning nomi Zulayho bo'lib ketgan.

Tavrotda Fir'avn Yusufni O'n shahrining kohini Po'tifarning qizi O'snatga uylantirib qo'yadi. Qur'oni karimda esa Yusufning Misr hokimi bo'lishi va uylanishi haqida hech narsa deyilmagan. Shu bilan birga, Qur'oni karimda Yusufning akalari, ukasi va singlisi nomlari, Misr podshohi, Misr hokimi, Yusufning onasi, quli, o'gillari, Yusufni Misrga sotgan savdogar va uning qullari nomlari ham keltirilmagan. Unda faqat Yusuf va uning otasi Yaqub ismi mavjud. Tavrotda Yusufning hamma akalari, ukasi va singlisi nomlari bor. Misr podshosi umumiy nom Fir'avn nomi bilan kelgan, Misr xokimining nomi Po'tifar, uning xotinining nomi esa keltirilmagan. Tavrotda Yusufning onasi Rohil vafot etgan bo'ladi. Qur'oni Karimda u tirik, asar oxirida u ham boshqalar qatori Misrga boradi va u yerda Yusufning ko'rgan tushi hayotda voqe' bo'ladi. Yusufning yoshligida ko'rgan tushi, osmondan oy, kun va o'n bir yulduzning pastga enib, Yusufga ta'zim qilishi epizodi Tavrotda bor. U asarning boshida Yusufning ikkinchi tushi sifatida keltirilgan. Ammo oxirida uning hayotda amalga oshganligi aytilmaydi. Yusufning birinchi tushi - dalada akalari bilan bog'lama bog'layotganini, uning bog'lami tik turib, akalarining bog'lami unga ta'zim qilganligi Qur'oni karimda yo'q. Ammo Tavrot va Injilda uchraydigan boshqa bir necha epizodlar singari u ham islomiy adabiyotda mavjud badiiy asarlarda hikoya qilingan. Tavrotda akalari Yusufni quduq boshida Ismoiliiy savdogarlarga yigirma kumush tangaga, savdogarlar esa uni

Misrga olib borib, shahar hokimi va Fir'avn saroyi soqchilari boshlig'i Po'tifarga sotadilar.

U Yusufni xonadonining boshqaruvchisi qilib qo'yadi. Qur'oni karimda Yusufni akalari sotib yuborishmaydi. Yusuf quduqqa tashlangan chelakka osilib chiqadi va savdogarlar uni sotiladigan narsalari qatori yashirib qo'yadilar va Misr bozorida g'oyat arzon bahoda - bir necha tangaga sotib yuboradilar. Aytish kerakki, badiiy asarlar va tafsirlarda, shu lavhalarni hikoya qilishda "Qur'oni karim"dan chetga chiqilgan o'rinlar bor. Masalan, Yusuf haqidagi deyarli hamma badiiy asarlarda Yusufni akalari tomonidan g'oyat arzon bahoda sotib yuborilgani aytilgan va u chiroyli izohlangan. Yusuf bir vaqt oynaga qarab yoki quduqdagi suvda aksini ko'rib o'z jamoliga oshiqcha baho beradi. Bu xudoga ma'qul bo'lmaydi va shuning uchun u dastlab arzimas narxda sotiladi. Yusuf maqtanchoqligi esiga tushib xudodan mag'firat so'raydi. Keyin Misr bozorida Parvardigor o'z siddiq bandasi va payg'ambarining haqiqiy narxini belgilaydi. Uni hech kim sotib ololmaydi, Misr hokimining ham xazinasi yetmaydi - Yusuf xaridorini xijolatdan chiqarib o'z ixtiyori bilan qullikni bo'yniga oladi. Badiiy asarlarda, shuningdek, Rabg'uziy, "Qisasul anbiyo"sida Yusufning Misr bozoridagi holati shu darajada har tomonlama va ruhiy kechinmalarga boy tarzda tasvirlanganki, quduq boshidagi narxi uni tamoman o'zga bir insonga aylantirganligi, unda so'fiyona kayfiyat qaror topganligi aniq bilinadi.

Yusuf haqidagi badiiy asarlarda mavjud eng ta'sirchan va hayajonli lavhalardan biri Yusufning onasi qabri ustidagi holati tasviridir. Bunda ham Tavrotga asoslanilgan. Tavrotda Yusufning onasi qabri ustidagi faryodi berilmagan bo'lsa ham, onasining vafot etganligi aytilgan. Bu tasvir Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida keltirilgan bo'lib, uni qul qilib olib ketishayotganda karvondan ajralib, onasining qabri ustida nola qiladi:

Ul mozorni quchib, qilib zori;

Dedi yuz dard ila shu guftorni:



Ayri tushdim padardan, ey modar,  
Menga zulm etdilar birodarlar.

Tosh ila urdilar; zabun bo'ldim,  
Lola yanglig' g'ariqi xun bo'ldim.

Qahr ila choh qa'riga otdilar,  
Oqibat banda debon sotdilar.

Koshki men ham o'lsam, ey onajon,  
Senga hamxona bo'lsam, ey onajon.

Roviylar deydiki, ul vaqt bul mozor,  
Zori qildi go'yokim oshiqi zor.

Dedi: "Yig'lama, ey ko'zim nuri,  
O'tda yoqma bu xoki mansurni.

Mendan senga bashoratlar,  
Hali qo'ngay boshingga davlatlar.

Ki podshoh bo'larsan Misr shahriga,  
Egilibon kelgaylar eshigingga.

Dargohingga arzi hol aylagaylar,  
Sadoqatin bayon aylagaylar."

Tirik bo'lganingda o'gay akalarim qo'lida bundayin xorlikda qolmasdim, ahvolimni ko'r deya dod solayotganda onasi uning tepasiga kelib unga dalda beradi. Bu kunlarning bari o'tkinchi yaxshi kunlar oldinda ekanligini aytib,

o'g'liga dalda beradi.<sup>5</sup>

Payg'ambar Ya'qubning keyingi farzandlarini ko'proq sevishi sabablaridan biri ham ularning onasiz ekanliklarida deb izohlangan. O'zbek va fors-tojik adabiyotida mavjud asarlarda va «Qisasul anbiyo»larda Tavrotdagidek Yusufning onasi vafot etgan deb ko'rsatilgan va Yaqubning Yusuf va Ibn Yaminni ko'proq yaxshi ko'rganligi onalarining yo'qligi uchun deyilgan va bundan qabr ustidagi holatni tasvirlashda juda ustalik bilan foydalanilgan. «Qur'on»da Yusufning onasi tirik bo'lib, oxirida uning tushi ro'yobga chiqishi tasviri ancha keng yoritib berilgan<sup>6</sup>. Rabg'uziyning «Qisasul anbiyo» asarida ham, Durbek va Andalib asarlarida ham bu epizodlar juda hayajonli chiqqan. Ammo buning evaziga Misrda Yusuf tushining hayotda amalga oshishi epizodi o'z-o'zidan tushib qolgan yoki keltirilgani ham mantiqsiz chiqqan. Ya'ni ayrim asarlarda Yusufning onasi qabri ustidagi nolalari ham, oxirida Misrda ko'rgan tushining ro'yobga chiqishi ham mavjud.

Fors-tojik va o'zbek adabiyotida Qissaning Tavrot nusxasi ham katta ta'sir ko'rsatganligini aniq his etish uchun Qur'oni karim va Tavrot nusxalarini qiyoslash kerak bo'ladi.<sup>7</sup>

Qissa sura sifatida Qur'oni karimda mavjud bo'lgan paytlardan boshlab Chahoryorlar, Sahobalar, Muhaddislar, mufasssirlar, mutasavvuflar va qissaxon roviylar «Tavrot», «Injil» va folklor namunalaridan foydalanib sujetni to'ldirish, mukammallashtirishga kirishganlar va bunda fantaziyaga ham keng o'rin berilgan. Undagi har bir voqea xilma-xil shakl va yo'nalishlarda izohlangan. Keyingi asarlarda arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda yuzaga kelgan «Qisasul-anbiyo»larda ana shu izohlardan foydalanishgan. Bu jihatdan ayniqsa Rabg'uziyning asari qissadagi har bir sahnaning g'oyat xilma-xil tomondan izohlanganligi bilan ajralib turadi. Rabg'uziy shu qissani yozishda 20 dan ortiq manbaga murojaat qilgan.

---

<sup>5</sup> Uch bulbul gulshani.

<sup>6</sup> Qur'oni karim.

<sup>7</sup> Tohirov Q. Xalq qissasi «Yusuf va Zulayho»ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001. 6-8 b.

“Rabg‘uziy bu qissaning ahsan (go‘zal) deyilishi sababini quyidagicha izohlaydi:

- 1) Qur‘ondagi boshqa hamma qissalardan foydasi ko‘proq ekanligi;
- 2) Qissa boshdan oxir, bir qavlda qirq yil, boshqa birida sakson yil ichida bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga olganligi;
- 3) Qur‘oni karimda boshqa qissalar turli oyat va suralarda, Yusuf qissasi esa faqat bir oyat - Yusuf surasida kelganligi;
- 4) Boshqa qissalarda voqealar begona odamlar orasida yuz berganligi;
- 5) Qissada uch hol: rohatda va mashaqqatlarda Ollohga itoatda, xaloyiq orasida ezgu muomalada, yaxshi va yomon kayfiyatda bo‘lganda bag‘ri keng, ochiq bo‘lmoq borligi;
- 6) Yusufning o‘z og‘alari bilan ezgu muomala qilganligi. ularning jafosiga sabr-bardoshli bo‘lganligi;
- 7) Qissaning avvali tush, o‘rtasi tush va oxirida ham tush ko‘rish borligi;
- 8) Qissaning ishq bilan tamom bo‘lganligi;
- 9) Rasul alayhissalomning bu sura haqida aytgan quyidagi gaplari.

"Kimki o‘n turli baloga yo‘liqsa o‘n surani o‘qisin": vasvasaga tushsa, "Alhamdu" surasini; o‘g‘rilardan qutulayin desa, "Suratul baqara"ni; qashshoqlikdan qutulayin desa, "Oli Imron"ni; qayg‘u ko‘ngildan ketsin desa, "Suratul anom"ni; nifoq ko‘nglumdan chiqsin desa, «Suratul anfol»ni; achchig‘im tarqalsin desa, "Suratul asr"ni; qayg‘u menga harom bo‘lsin desa, "Alam nashrah"ni; kufr va shirk mendan ketsin desa, "Suratul-ixlos"ni; jodudan omonlik tilasa, "Suratul-mu‘avvizatayin"ni – bularning hammasidan qutilishni istasa, "Yusuf" surasini o‘qisin.

Suraning "ahsan-ul qisas" (qissaning go‘zali) deyilish sababini yana boshqa fazilatlar bilan ham izohlaydilar”<sup>8</sup>.

Qur‘oni karimdan boshlab bu sujet islomiy adabiyotda dastlab arab, keyin fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan sharhlar va qissalarda mukammallashtirila

---

<sup>8</sup> Tohirov Q. Xalq qissasi “Yusuf va Zulayho”ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001. 4-10 b.

boshlandi. Bunda ayniqsa "Ka'bul-axbor" degan nom olgan Abu Is'hoq Ka'b ibn Mote (VII asr)ning xizmati katta bo'lgan, chunki ko'p manbalarda, jumladan, "Qisasul anbiyo"yi Rabg'uziyda ham "Ka'bul-axbor" qissalar to'plami ko'p tilga olingan. Bu kitob boshqa qissa va dostonlarga ham manba bo'lib xizmat qilgan.

Dastlab "Qissayi Yusuf" deb yuritilgan asarlardan keyin Yusuf yonida Zulayho ismi paydo bo'ldi. Muqaddas kitoblarda Po'tifar yoki Qutfiyning xotini, Po'tifarning qizi O'snat deb nomlangan ayollar Zulayho nomida birlashdi. Bir qator mualliflar Zulayhoga ko'proq kinoya bilan qaradilar, uni o'z tuyg'ularini jilovlay olmagan ayol sifatida ko'rdilar, boshqalar unga hamdardlik bildirdilar. Ya'qub, Yusuf va Zulayho timsollari butun Sharq she'riyatida eng mashhur poetik obrazlarga aylandi. O'zbek adabiyotida ham bu obrazlardan foydalanmagan shoirlarni topish qiyin.

Buyuk shoir Alisher Navoiy "Yusuf va Zulayho" dostonini yozishni niyat qilgan, ammo umri vafo qilmagan. Shoirning bu asari qanday talqinda bo'lishi mumkinligini uning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan sujetdan taxmin qilishimiz mumkin. Navoiy bu mavzuda qalam tebratganlardan Abul Qosim Firdavsiy, Xo'ja Mas'ud Iroqiy, Abdurahmon Jomiylarni alohida qayd etgan. Yusuf alayhis-salom qissasi ko'pgina Sharq shoirlari qatori turkiy adabiyot vakillarining diqqat-e'tiborini ham o'ziga doimo jalb etib kelgan. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni bu fikrning bir dalili bo'lsa, ikkinchi bir muhim omil, Alisher Navoiyning e'tirof so'zlaridir<sup>9</sup>. Navoiy Yusuf alayhis-salom zikrining muqaddimasida bu qissaning naqadar mashhur ekanligini ta'kidlab shunday yozadi: *"Yusuf a.s. qissasi andin mashhurroqdurkim, ehtiyoj aning tafsilina bo'lg'ay, nevchunki g'arobat va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubdurlar va bayonida sehrlar ko'rguzubdurlar. Ul jumladin biri Firdavsiy Tusiy va yana biri hazrat maxdumi*

---

<sup>9</sup> Нодирхон Хасан. "Қисаси Рабғузий"да Юсуф пайғамбар образи талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996 йил, 4-сон.

*Mavlono Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy navvarallohu marqadahukim, andoqkim Yusuf a. s.ning husni va jamoli ta'rifdin mustag'niydur. Alarning dog'i fazl va kamolig'a vasf hojat emas. Yana xoja Mas'ud Iroqiy ham nazm qilibdur va balog'atning dodin beribdur"* <sup>10</sup>.

Durbek (XIV-asr oxiri — Balx — XV-asr boshi) — o'zbek shoiri. Uning “Yusuf va Zulayho” dostonigina yetib kelgan. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni 1409 yili yozilgan. Doston asosini Sharqda mashhur Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyat tashkil etgan. Sharq adabiyotida sayyor sujetga aylanib ketgan bu mavzu o'ziga xos uslubda qaytadan turkiy tilda bayon etilgan.

Keyingi yillarda dostonning chuqur va batafsil o'rganilishida adabiyotshunos S.Haydarovning xizmati katta bo'ldi. U Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni bo'yicha ilmiy tadqiqod ishlari olib borib, kandidatlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olim mazkur ishida xalqchilik, dunyoviylik motivlari va realizm elementlari dostonda mustahkam o'rin olganligini alohida ta'kidlab o'tish bilan birga, Durbek ijodini o'rganish tarixiga oid ko'pgina adabiyotlar ro'yxatini ham keltiradi.

Durbek o'zi yashagan davr manzaralarini doston ruhiga singdirib yuborgan. Asarda Balx shahrining qamal qilinishi, shahar xalqi boshiga tushgan og'ir fojialar yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Qamal tufayli yuz bergan ochlik, suvsizlik kabi qiyinchiliklarni shahar tashqarisidagi ma'murchilikka qarama-qarshi qo'ygan. Dostondagi qahramonlar faoliyati Markaziy Osiyo shahar va qishloqlariga xos tabiat manzaralari, turmush hodisalari, xalq urf-odatlari tasviri orqali aks ettirilgan. Shoir bosh qahramon Yusufning taqdiri va uning hayotga bo'lgan munosabatini turli vaziyatlarda tasvirlaydi. Yusufning insoniy fazilatlarini uning zehni va zakovati odamlarga, o'z eliga muhabbatida ko'zga yaqqol tashlanadi. U behuda qon to'kmasdan, aql-idrok bilan mamlakatni boshqaruvchi odil shoh darajasiga ko'tariladi. Durbek xotin-qizlar

---

<sup>10</sup> А. Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011 йил. 8-жилд. 554-бет.

latofati va zakovatini yangi jixatlar bilan boyitgan, Zulayho timsolida sadoqatli sevgi sohibasi obrazini yarata olgan. “Yusuf va Zulayho” dostonining qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. №185), Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanadi. Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa (masalan Yusuf va Zulayhoning qayta yosharishi), keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlar Zulayhoni go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar.

Shoir Durbek haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarda deyarli uchramaydi. Uning nomi 1920- yillargacha ilmiy adabiyotda ma'lum emas edi. “Yusuf va Zulayho” dostonining qo‘lyozmasi topilgach, shoir adabiyotshunoslar diqqatini jalb etadi. U haqda ilmiy ishlarda umumiy ma'lumotlar berildi. Asardan parchalar bosildi. Durbek 1930-40- yillardan boshlab darsliklardan ma'lum darajada o‘rin ola boshladi. Shoir ijodini o‘rganishda sharqshunos Bertels ancha ishlarni amalga oshirdi. Dostonning qolyozma nusxalari ko‘p bo‘lib, dunyoning turli fondlarida saqlanadi. Mamlakatimizda ham uning turli davrlarda ko‘chirilgan o‘nga yaqin nusxasi (O‘zFAShI fondida to‘rtta, Til va adabiyot institutida bitta, SamDU fondida ikkita, kishilarning shaxsiy kutubxonalarida ham mavjudligi aniqlangan) mavjud. Asar mamlakatimizda ilk bor 1959-yilda Sh.Sharafitdinov (Xurshid) tomonidan “Fan” nashriyotida chop etilgan. Keyinchalik 1987-yilda nashr ettirilgan “Uch bulbul gulshani” kitobiga ham kiritilgan.

“Yusuf va Zulayho” dostonining ayrim nusxalari (xususan SamDU fondida saqlanadigan nusxasida) “Ayladi bu qissani Durbek bayon” misrasi mavjud. Shunga tayangan holda adabiyotshunos olimlar Bertels, Hodi Zaripov, P.Shamsiev, Oybek, M.Shayxzoda, O.Sharofiddinov, V.Zohidov, I.Sulton, H.Yoqubov, G‘.Karimov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, B.Valixo‘jaev, S.Haydarov va boshqalar “Yusuf va Zulayho”ning muallifi Durbek deb ta'kidlaydilar. Biroq ilmiy jamoatchilik orasida “Yusuf va Zulayho”ning muallifi

Durbek emas, Ulug‘bek, Homidiy Balxiy hatto Alisher Navoiy degan fikrlar ham aytilgan. 90-yillarda chop etilgan umumta‘lim maktab darsliklarida esa “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifi noma‘lum asar sifatida berildi. Bu munozaralarning asosiy sabablari quyidagilar:

1. XV asrda yashagan shoir Durbek haqida biron bir tarixiy manba yoki tazkirada ma‘lumot uchramaydi.

2. Doston Balx qamal qilingan paytda yozilgan. Uning yozilgan yili abjad hisobi vositasida harflar bilan berilgan:

**"Zod"** edi tarix taqi **"he"**yu **"dol"**,

Muddati hijratdin o‘tub mohu sol.

(ض zod-800; ح he-8; د dol-4.  $800 + 8 + 4 = 812$ )

Ushbu bayt asarning hijriy 812 (melodiy 1409)-yilda yozilganligini ko‘rsatadi. Biroq dostonning ayrim nusxalarida baytning birinchi misrasi:

**"Zod"** edi tarix taqi **"ayn"**u **"dol"**, - tarzda beriladi.

Bu esa asarning hijriy 874 (melidiy 1469-70)-yilda yozilgan degan xulosaga olib keladi (ع ayn-70).

3. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da Yusuf (a.s.) haqida alohida asar yozmoqchi ekanligini aytgan.

4. Durbek so‘zining arabcha yozilish shakli Ulug‘bek so‘zining yozilish shakliga o‘xshaydi.

5. Doston matnida qo‘llangan “homiya din” birikmasi ayrim olimlar tomonidan “Homidiy” tarzda o‘qilgan.

“Yusuf va Zulayho” dostoni va uning avtori masalasiga bag‘ishlangan ilmiy munozaralarning eng so‘nggisi Mahmud Diyoriyning “Durbek dovrug‘i” maqolasidir.

Akad. B.Valixo‘jaev mazkur holatlarni tahlil qilgan holda dostonning samarqandlik ziyoli kishi Abdulmajid Po‘lodiyning shaxsiy kutubxonasida saqlanadigan nusxasida ham Durbek taxallusi qo‘llanganligini qayd etib, dostonning yangi qo‘lyozmasi yoxud shoir haqida yangi ma‘lumotlar

aniqlanmaguncha, uning 1409-yilda Durbek taxallusli shoir tomonidan yozilganligi haqiqatga yaqinroq, degan xulosaga keladilar.

“Yusuf va Zulayho” ishqiy sarguzashti haqidagi sujetning tarixi arab va yahudiy xalqlarning qadimiy og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Biroq uni faqat shu xalqlarning qadimgi og‘zaki ijodigagini bog‘lab ko‘rsatish bir yoqlamalik bo‘ladi<sup>11</sup>. Chunki boshqa xalqlar ijodida ham Yusuf va Zulayho mavzuidagi afsona, rivoyat va ertaklar uchraydi. “Yusuf va Zulayho” qissasi xalq og‘zaki ijodidan so‘ng Tavrot, Injil va Qur‘oni Karim singari ilohiy kitoblardan joy oldi. Bu esa mazkur qissaning muqaddaslashtirilishini ta‘minlagan omil bo‘ldi. Natijada tarixning hamma bosqichlarida turli e‘tiqoddagi ijodkorlar bu ilohiy qissaga qiziqib, uning asosida nafaqat she‘riy va nasriy, balki dramatik badiiy asarlar ham yarata boshladi. “Yusuf va Zulayho” dostonining qo‘lyozma nusxalari to‘qqista bo‘lib, shundan yettitasi O‘zbekistonda va ikkitasi chet ellardadir. Chet elda saqlanayotgan nusxalar O‘zbekistondagi nusxalarga nisbatan ancha nodir hisoblanadi.

---

<sup>11</sup>Сулаймонова Ф. “Юсуф ва Зулайхо” достонининг Алишер Наойига нисбат берилган Париж кўлёмаси хакида. Адабий мерос. 1973 й. №3. 152-157 бетлар.



## **1.2 Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida diniy sujet va badiiy to‘qima.**

“Yusuf va Zulayho” sujeti xalq orasida nihoyatda mashhurdir. Manbalarda Yusuf timsolining juda qadimiy ildizga ega ekanligi, u yahudiylarning qadimiy ilohlaridan biri bo‘lsa kerak degan qarashlar bayon etilgan. Yozma adabiyotda “Yusuf va Zulayho” sujeti ancha ilgari davrlardan boshlab yoritila boshlandi. Abul Muayyad Balxiy, Baxtiyoriy degan shoirlar bu sujet asosida asar yozgan degan ma'lumotlar mavjud. Lekin ularning asarlari bizgacha saqlanib qolmagan.

Durbekdan keyin ham fors-tojik va turkiy adabiyotning bir qator mumtoz namoyandalari bu sujetga murojaat etishgan. Xususan, Abdurahmon Jomiy “Haft avrang” da Xusrav haqidagi doston o‘rnida Yusuf va Zulayho sujetiga murojaat etiladi. Xorazmda yashagan mumtoz turkman shoiri Nurmuhammad Andalib ham nasr va nazm yo‘li bilan qissa yaratgan. Shu bilan birga, o‘zbek va turkman xalqlari orasida shu nomdagi xalq qissasi ham mashhur bo‘lgan (Qarang: Q.Tohirov. Xalq qissasi “Yusuf va Zulayho”ning matni va tadqiqi. – Samarqand: SamDU nashri, 2002.).

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonini 1409-yilda Balx qamali davrida yozilgan. Muallif qamal davrida ko‘p kitob mutolaa qilganligini, forsiy tildagi “Yusuf va Zulayho” asarlarini o‘qiganligini va turkiy tilda asar yozish niyati tug‘ilganini ta’kidlaydi.

Qal’ayi Balx o‘ldi chu darvozaband,  
Poyayi zulm o‘ldi bag‘oyat baland...  
Shahr chu do‘zax kibi zindon edi,  
Tashqari chun ravzayi rizvon edi...  
Goh o‘qur erdim zi kalomi iloh,  
Goh kutub ichra qilur erdim nigoh.  
Goh boqar erdim zi kitobi qisas,

Goh ichar erdim zi sharobi g'usas.  
Lek qisas ichra vale mayli jon,  
Qissayi Yusufda edi ul zamon...  
Nasr edi, bu qissa dag'i porsi,  
Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.  
Bor edi ko'ngulda burundin bu azm,  
Turki tili birlamu qilsam bu nazm. (22-b.)

Doston aruzning sari' bahrida yozilgan bo'lib, an'anaviy tarzda hamd va na't bilan boshlanadi:

Hamdu siposi maliki lam yazal,  
Bilgan erur / bandai xay/rul amal.  
- v v - / - v v - / - v -  
Mufta'ilun mufta'ilun foilun  
Sari'i musaddasi matviyi makshuf

Dostonda XIV asr oxiri - XV asr boshlari ijtimoiy muhitining ayrim qirralari Yusuf va Zulayhoning romantik sarguzashtlari orqali tasvirlanadi. Asarda hayotiy, insoniy go'zallik, dunyoviy va diniy ishq-muhabbatning tasviri, halollik va to'g'rilik kabi mavzular yoritiladi. Asardagi ijobiy qahramonlar o'zining xarakteri, ruhiyati, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ijobiy qahramonlarga Yusuf va Zulayho, Ibn Yamin, Ya'qub, Bashir obrazlari kiradi. Asarning bosh obrazi Yusufdir. Dostondagi asosiy voqea Yusufning sarguzashtidir. Boshqa voqea va sarguzashtlar u bilan uzviy bog'lanib boradi, uni to'ldiradi va takomillashtiradi. Qul xotin va Bashir voqeasi esa dostondagi asosiy voqeani mazmun va badiiy jihatdan boyituvchi voqea bo'lib xizmat qiladi. Qul xotin Mubashsharaning sevimli o'g'li Bashirni Ya'qub a.s. sotib yuboradi. Qattiq qayg'u va istirobga tushgan onaning achchiq qismati keyinchalik Ya'qub a.s.ning ham boshiga tushadi. Taqdir taqozosi bilan Yusuf o'z ko'ylagini otasiga Bashir orqali berib yuboradi.

Shoir Yusuf faoliyatini boshlanishidan to oxirigacha batafsil tasvirlaydi. Dostonda ikkita sujet chizig'i mavjud:

1. Ya'qub payg'ambar – uning o'g'illari – Yusuf (a.s.) o'rtasidagi ziddiyat.

2. Zulayho – Yusuf – Misr azizi o'rtasidagi sujet chizigi. Ikkala sujet ham ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi tarkibiy qismlarga ega bo'lib, mahorat bilan uyg'unlashtirilgan, bir-birini to'ldiradi va bir nuqtaga borib birlashadi.

Yusuf - Ya'qub payg'ambarning kichik o'g'li. Durbek bu obrazni, diniy va insoniy mavzuni uzviy bog'lagan holda tasvirlaydi. Yusuf obrazi ko'p jihatlari bilan Qur'oni karimdagi Yusufga yaqin va ayni paytda ba'zi jihatlari bilan farq ham qiladi. Yusufdagi ijobiy fazilatlar, insonga xos xususiyatlar, uning donoligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi, vatanparvarligi, ota-onasiga nisbatan bo'lgan farzandlik muhabbati kabilarda ko'rinadi.

Yusuf-go'zallik timsoli. Otasining sevimli farzandi. Shu sabab ham akalari unga hasad qilishadi. Yusufni chohga tashlashadi. Qul qilib sotishadi, azoblarga giriftor etishadi. Keyinchalik Yusufning hayoti va taqdiri Misr xalqi hayoti bilan bog'lanadi. U Zulayhoning tuhmatlariga chidaydi, zindon azobini boshdan kechiradi, o'tkir muabbirliги-tushni ta'biray olishi, zindon azobini tortish Misr xalqini ochlikdan xalos etishi, akalari bilan uchrashuvi, Zulayhoga uylanishi, akalarining gunohlarini kechirishi, otasi Ya'qub bilan uchrashishi, Misrni odillik bilan boshqarishi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Asardagi muhim obrazlardan yana biri Zulayhodir. Zulayho-go'zal va ayni paytda o'tli ishq egasi. U Yusufni tushida ko'rib, sevib qoladi. Mag'rib shohi Taymus shoh qizi bo'lgan Zulayho quyidagi qiyofaga ega:

Bir qizi bor edi mahi xovariy,  
Oraziga shamsu qamar mushtariy.  
Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,  
Barcha funun bobida sohibkamol .

Hosili umri edi ul shohning,

Oti Zulayho edi ul mohning.<sup>12</sup>

Zulayho ishq dardiga muhtalo bo'ladi. Dardi kundan-kun alanganadi. Tushida Yusufning "Misr elida shahriyor" ekanligini bilgach, Misrga borishga ahd qildi, ota-onasi uni Misr Aziziga uzatishadi. Biroq Zulayhoning tushida aytilgan so'zlar kelajak haqidagi bashorat edi. U Misr Aziziga turmushga chiqqan bo'lsa-da, Yusuf ishq bilan yashaydi. Zulayho Yusufni sotib oladi. Yusufga bo'lgan munosabati oshkor bo'lib, ayollarning malomatlariga qoladi. Yusufga tuhmat qilishga majbur bo'ladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan yengadi va oxir-oqibat Yusufga turmushga chiqadi. Yusuf va Zulayho Mishom va Farohim ismli o'g'il va Rohima ismli qiz farzandlar ko'radi.

Asardagi Ya'qub mehribon ota sifatida namoyon bo'lsa, Bashir va uning onasi obrazlarida shoirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan.

Dostondagi salbiy obrazlarni Yahudo boshchiligidagi Ya'qubning katta o'g'illari tashkil etadi. Molik tojir esa savdogarlarning tipik obrazidir.

Asarda ramziylik xususiyati kuchli, qaysidir ma'noda asosiy o'rinni egallaydi, deb aytish ham mumkin. Undagi alohida epizodlar ilohiy ma'rifat ifodasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Jumladan taqdiri ilohiyning barhaq ekanligi, yaxshiliksiz yomonlik va yomonliksiz yaxshilikning bo'lmasligi, tangri suygan bandalarini azobda sinashi haqidagi va boshqa bir qator aqidalar o'zining go'zal, ta'sirli va eng muhimi hayotiy ifodasini topgan. Yusuf zindonga tushgach, Zulayho zindonbondan uni kaltaklashni so'raydi va o'zi eshik oldiga borib uning ovozi eshitish bilan sog'inchi, ishtiyoqi, ishqiga taskin beradi. Zero Zulayho ozodlikda bo'lsa-da Yusufdan o'n chandon ortiq azoblanayotgan edi.

Yusuf akalarining nodonligi, xiyonati, vahshiyiligini kechiradi. Chunki uning talqini bo'yicha qavmini qahatchilikda qirilib ketishdan saqlab qolishi

---

<sup>12</sup> Uch bulbul gulshani.

uchun uning Misrga borishi shart edi. Demak uning Misrga sotilishi ilohiy taqdir. Asarning sujet boshida ko‘rilgan tush ijobati bilan yakun topishi ham ramziylikning o‘ziga xos namunasidir.

Asarda bir qator ikkinchi darajali va epizodik obrazlar ham mavjud bo‘lib, ular ham doston badiiyatida munosib o‘ringa ega. Bo‘rilar sardori, Yusufning onasi (qabri ustida Yusuf onasining ruhi bilan so‘zlashadi) kabi to‘qima timsollar shular jumlasidan bo‘lib, an’anaviy sujetning badiiy takomili, ta’sirchanligi oshishiga xizmat qilgan. Bu esa shoir Durbekning mahorati qirralaridandir. Dostonningning yetakchi qahramonlari Hazrati Ya’qub; Yusuf va Zulayholar hisoblanadi. Shu bilan birga asar tarkibida to‘qsonga yaqin nomlar uchraydiki, ular ham dostondagi muayyan g‘oya va maqsadni ravshan ko‘rsatishda hissa qo‘shadi. dostondagi bu timsollarning voqealar rivajidagi o‘rni birday emas, albatta. Ulardan ayrimlari voqealar rivojida bir necha marta tilga olinsa; ba’zilari muayyan lavhalardagina ishtirok etishadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ularni nazardan chetda qoldirish also mumkin emas. Chunki o‘sha nazarga ilinmaydigan qahramonlarsiz ham asarning yaxlitligini tasavvur qilish qiyin. Shu qahramonlar tufayli Ya’qub, Yusuf, Zulayho va boshqa faol timsollar sarguzashti, qiyofasi, ruhiy – ma’naviy olami, felu atvori, tabiati mukammallik kasb etadi.

“Yusuf va Zulayho”da xalq og‘zaki ijodining kuchli ta’siri seziladi. Tush ko‘rish, tushni ta’birlash, behad go‘zallik, hayvonlarning gapirishi, bir zarb bilan toshni ko‘tarib otish, yig‘laganda giyohlarning unishi, yig‘lay-yig‘lay ko‘zning ko‘r bo‘lishi, farzandining ko‘ylagini ko‘ziga surtishi bilan ko‘r ko‘zning ochilishi kabilarda bularni kuzatamiz.

Shoir Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni:

1. O‘zbek mumtoz dostonchiligi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.
2. Yusuf (a.s.) qissalarining diniy qissadan badiiy sujet darajasiga ko‘tarilishida munosib o‘ringa ega bo‘ldi.

3. Mazkur sujetning turkiy xalqlar orasida shuhrat qozonishi, xalq kitoblari, qissalarining yuzaga kelishida turtki bo'ldi.

Dostonda o'z ifodasini topgan diniy, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar barcha davrlar uchun tarbiya vositasi bo'la oladi.

Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusufning akalari tomonidan chohga tashlanishi "Qur'oni karim"dagi singaridir: Yusufning o'gay og'alari biz ko'pchilik bo'lsak-da, shak-shubhasiz, Yusuf va uning birodari Binyamin otamizga bizdan ko'ra suyuqliroqdir. Yusufni o'ldiramiz yoki biron yerga olib borib tashlaymiz shundagina otamiz faqat bizlarga boqadi. Shunda ulardan biri Yusufni o'ldirmanglar, undan qutulish uchun uni quduq qa'riga tashlab yuboringlar, yo'lovchi karvonlar olib ketadi. Ular shunday qarorga kelganlaridan so'ng, Ya'qub alayhis-salomning oldiga kelib, ota nima sababdan Yusufni bizga ishonmaysan? Axir biz uni xolis yaxshi ko'ruvchilarmiz-ku.

Uni ertaga biz bilan aylanishga yuboringin, o'ynab-yozilib kelsin. Ya'qub uni olib ketishlaringiz meni mahzun qiladi. Men, sizlar g'aflatda qolib, uni bo'ri yeb ketishidan qo'rqaman deya o'zi sezmagan holda, ularning shum niyatlariga bahona topib berdi. Endi bu tasvirning "Tavrot"da kelishiga qarasak Yusufning akalari otalarining padalarini boqish uchun Shakamga ketishgan edi. Shu vaqt Isroil ( "Tavrot"da Ya'qubning ismi shunday berilgan ) Yusufga sen akalaring oldiga borib, podalarning ahvolidan menga xabar keltir deb, Yusufni akalari oldiga Ya'qubning o'zi yuboradi. Ular kechqurun otalari oldiga yig'lagan hollarida kelishib, ota bizlar Yusufni narsalarimiz oldida qoldirib quvlashib ketgan edik, uni bo'ri yeb ketibdi. Endi rost gapirsak ham sen bizlarga aslo ishonmaysan dedilar va Yusufning ko'yilagini yolg'on qonga, ya'ni bir qo'yni so'yishib o'shaning qoniga bo'yab keltirdilar. Shunda Ya'qub yo'q sizlarga havoyi-nafslaring biron yomon ishni chiroyli qilib ko'rsatgan. Endi mening ishim chiroyli sabr qilmoqdir deydi<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> Qur'oni karim.

Odamzod shunday yaratilganki, boshiga kelgan balo-musibatdan yig'lab-siqtab besabrlik qiladi. Lekin har qanday odam ham asta-sekin kelgan ko'rgulikka ko'nikib, endi sabr qilish lozimligini anglab yetadi. Allohga va barcha yaxshi-yomon ishlar yolg'iz Uning amri bilan bo'lishiga sidqidildan iymon keltirgan kishilar esa musibat tushgan birinchi lahzadanoq dod-voysiz "chiroyli sabr" qila olar ekanlar. Bu xususida o'zining yeru ko'kka ishonmaydigan farzandi-dilbandidan ajralib qolgani haqidagi xabarni eshitgan zahoti "chiroyli sabr" qilishga rozi bo'lgan Ya'qub alayhis-salom to qiyomat iymon-e'tiqod egalari uchun ibratdir. Sabr nima ekanligi haqida payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom esa shunday marhamat qilganlar: "Baloning birinchi zarbasi paytidagi sabrgina chin sabrdir" Ko'rinib turibdiki, "Qur'on"dagi qissa ishq-muhabbat talqinida emas, balki sabr-toqatli bo'lishdadir.

Durbek dostonida bo'ri tasviriga alohida e'tibor qaratib, uni Ya'qub bilan suhbatini tasvirlaydi. Ya'qub bo'ridan nima sababdan o'g'lini yeganini so'raydi. Bo'ri bu ishni qilmaganligini Ya'qubga aytadi. Yusufning quduqqa tashlanishi, Misrda sotilishi tasviri diniy kitoblar va Durbekning dostonida deyarli farq kuzatilmaydi. Yusufning Misr azizi sotib olishi uni o'ziga o'g'il sifatida ko'rib, barcha ishlarini ishonib topshirgani, so'ngra Zulayhoni unga intilishi "Qur'on"da Durbekning dostonida bir xillik ko'zga tashlanadi. Faqat Durbek bunda badiiy g'oyalar bilan dostonni boyitishga harakat qiladi. Zuloyho tush ko'radiva Yusufning kimligini qayerdan ekanligini so'roydi. Yusuf o'zini Misr yurtida shahriyor ekanligini aytgach, Taymus shoh Misrga elchi yuborib, bizga o'g'il bo'lsin deya noma yo'llaydi. Mag'rib padshohining qizi Zulayxo hazrati Yusufni tushida ko'rgani.

Bir kecha Yusufni magar ko'rdi xob.

Kirdi oning qo'ynina chun oftob.

Shamsu qamardek topibon ittisol,

Bir-biridin ayladi sebi visol.

Dedi Zulayxoki: — Ayo gulbadan,  
Menga de otingni — nedur? Qaydasan?

Qayda tilay yo‘qlasam oxir seni?  
Munda toparsan chu tilasang meni.

Dediki: — “Yusufdur otim, gul uzor,  
Men eruram Misr elida shahriyor.

Mehnatu dardu alamu ranju g‘am,  
Yetgusidur muncha balo dambadam.

Oqibat ul tengri inoyat qilib,  
Seni menga, men senga bo‘lg‘um nasib”.

Ushbu so‘z ustinda Zulayxo ravon  
Seskanib uyg‘ondi magar ul zamon.

Erdi aning og‘zida Yusuf oti,  
O‘rtadi boshdin-oyog‘i ishq o‘ti.

Oqibatul-qissa, chu Taymus shoh,  
Dedi erur Misr chu shash moha roh.

Yig‘di ulug‘ beklarini ul zamon,  
Dedi qiling Misrg‘a elchi rason.

“Nomau tahsin bitingiz bu dam,



Misr Azizi ul emish muhtaram,

Ya'ni o'g'ulluqqa qilurbiz qabul,  
Bizning oramizda yurursun rasul.

Misrda uldur chu shahi komgor,  
Anga erur yaxshi-yomon ixtiyor”

Butkarib elchiga berib ul zamon,  
Misr sari qildilar elchi ravon.

Bu tasvir Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida ham xuddi shunday berilgan bo‘lib, Zulayho uch marta tush ko‘radi. Birinchi va ikkinchi tushlarida ishq dardiga muhtolo bo‘lgan Zulayho o‘z tanasiga jarohat yetkazayotganini ko‘rgan Taymus shoh qizini kishanlashni buyuradi. Uchinchi bor tush ko‘rganda Yusuf unga Misrda shaxriyor ekanligini aytadi. Misrga kelgan Zulayho Misr azizi tushida ko‘rgan Yusuf emasligidan qattiq istirobga tushadi. Shunga qaramay or-nomus, deb unga turmushga chiqishga rozi bo‘ladi. Bunda to‘qima obrazlardan Zulayhoning enagasi muhim rol o‘ynaydi va ikkala dostonida Jomiy, Durbek asarlarida keltiriladi. Yusufni sotib olgan Misr azizi uni uyiga olib kelib, Zulayhoga topshiradi va o‘g‘il qilib olishini aytadi. Zulayho tushida ko‘rib sevib qolgan yigitni taniydi. Jomiyning dostonida Yusufni Zulayhoning o‘zi sotib oladi. Bir kuni Zulayho Yusufning visoliga intildi. Agar Yusuf Parvardigorining ochiq hujjat-alomatini ko‘rmaganida, u ham Zulayhoga moyil bo‘lar edi. Yusufdan yomonlik va buzuqlikni chetlatish uchun mana shunday qildik . Zero, u pokiza bandalarimizdandir<sup>14</sup>.

Durbek va Jomiyning dostonlarida esa, Yusufning ko‘z o‘ngida otasi Ya‘qub gavdalanadi. Ikkalasi ham eshik tomonga chopishdi va Zulayho Yusufga yetib olib uning ko‘ylagini orqa tomondan yirtib yubordi. Eshik oldida esa

---

<sup>14</sup> Qur'on

Zulayhoning hojasi — eriga yo‘liqib qolishdi. Shunda Zulayho eriga qarab, Yusufga tuhmat qilishga majbur bo‘ladi. “Sening oilangga yomonlik qilmoqchi bo‘lgan kimsaning jazosi yo zindon, yoki alamli azobdir”, dedi.

Yusuf uning o‘zi meni yo‘ldan urmoqchi bo‘ldi deb aytadi. Shu payt Zulayhoning urug‘laridan biri guvohlik berib, agar uning ko‘ylagi old tomondan yirtilgan bo‘lsa, u holda Zulayhoning gapi rostdir va Yusuf yolg‘onchilardandir. Agar ko‘ylagi orqa tomondan yirtilgan bo‘lsa, u holda Zulayhoning gapi yolg‘ondir.

Rivoyat qilishlaricha, mazkur guvohlik beruvchi Zulayhoning amakivachchasi bo‘lib, beshikdagi chaqaloq edi. Ne tongki, Tangri taolo O‘zining payg‘ambari Yusufni ma’sum bir go‘dak tili bilan oqlaydi. Ushbu voqea birgina “Tavrot”da uchramaydi. “Qur’on”da, Durbekda va Jomiyda xuddi shu holat kuzatiladi. Zulayho malomatga qoladi. Shahardagi ayollar hokimning xotini o‘z xizmatkorini yo‘ldan urmoqchi bo‘libdi. Rosa yuragidan uribdi-da! dedilar. Zulayho ularning ig‘volarini eshitgach, ularga odam yubordi va kelganlaridan keyin anvoyi mevalar bilan dasturxonni to‘ldirib, ulardan har biriga bittadan pichoq berib qo‘ydi. Keyin Yusufni ularning oldiga chiqardi.

Ular o‘zlari sezmagani hollarida, qo‘llaridagi pichoqlari bilan o‘z qo‘llarini kesa boshladilar. Agar mening amrimni bajarmas ekan, albatta zindonga tashlanur va xor-zor bo‘lasan deganda, Yusuf men uchun zindon yaxshiroqdir deb aytadi. Zindonga u bilan birga yana ikki yigit tushgan edi. Ulardan biri ilgari hokimning soqiysi bo‘lgan, boshqasi esa hokimning novvoyi bo‘lgan. Yusuf ularning tushini ta’bir qiladi.

Kunlarning birida Misr mamlakatining shohi men tushimda yettita oriq sigir yettita semiz sigirni yeyayotganini va yettita yashil boshoq bilan birga boshqa qurigan etti boshoqni ko‘rdim. A’yonlarim, agar tushlarning tabirini ayta oluvchi bo‘lsangizlar, bu tushimning ta’birini menga aytinglar dedi<sup>15</sup>. Bu tushlar va ularga qilingan ta’birlar, diniy kitoblarda, Durbek va Jomiy dostonlarida bir

---

<sup>15</sup> Qur’on

xillikda bo‘lib, “Yusuf va Zulayho” haqida yaratilgan deyarli barcha asarlarda an’anaviylikni va o‘ziga xoslikni tashkil etadi. Yusuf mamlakatda yetti yil serhosil bo‘lib, yetti yil qahatchilik bo‘lishini aytadi. Shoh Yusufni Misrga hokim etib tayinlaydi hamda vafot etgan avvalgi hokim Qitfiyrning xotini Zulayhoni Yusufga nikohlab beradi. Qitfiyr qandaydir kasallikka chalingani uchun shuncha yil birga yashagan bo‘lsalarda, hali Zulayhoga yaqinlik qilolmagan, Zulayho bokira qiz ekan. Shohning tushida ayon bo‘lgan qahatchilik boshlanadi. Yusufning akalari hokimning oldiga don-dun so‘rab kelishadi, ammo oradan ancha yillar o‘tib ketgani uchun Yusufni tanishmaydi. O‘g‘li yo‘qolganidan yig‘lay-yig‘lay ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolgan Ya‘qub alayhissalomga Yusuf o‘zining ko‘ylagini berib yuboradi. O‘g‘lining hidini tuyib, uning tirik ekanligiga ishonch hosil qilgach, Ya‘qub alayhissalomning ko‘zlari ochilib ketadi. Durbek tomonidan yaratilgan Yusuf va Zulayxo dostoni yuksak badiiy mahorat bilan to‘liq ishlangan va bizga ma‘lum bo‘lgan o‘zbek tilidagi barkamol dostonlarning qadimgisidir. Durbek o‘zbek xalqi tarixida yuz bergan to‘s-to‘polonlar sodir bo‘layotgan bir davrda yashab ijod etdi. U jahon miqyosida keng tarqalgan sujetga Yusuf va Zulayxo qissasiga murojaat qilib, uni o‘z zamonsi talabi bilan qayta ishladi. Dostonda ko‘zga tashlanadigan muhim xarakterli tomonlardan biri uning zamonaviy bo‘lishidadir. O‘zbek adabiyoti tarixida dunyoviy hayotni o‘zida to‘liq mujassamlashtirgan, zamon ruhini o‘zida aks ettira olgan dostonlardan biri Durbekning “Yusuf va Zulayxo”sidir. Durbek asari qahramonlari xarakterini, ruhiy kechinmalarini o‘zbek xalqi hayoti bilan bog‘lay oldi. Shoir ijodi murakkab bir davrga to‘g‘ri keldi. Dostonda tasvirlanayotgan asar qahramonlari faoliyati O‘rta Osiyo shahar va qishloqlariga xos tabiat manzaralari turmush hodisalari, xalq urf – odatlari bilan chatishib ketadi. Ya‘qub bolalari o‘rtasida tug‘ilgan bir-birini ko‘ra olmaslik kayfiyatlari uning oilasidagi aka-ukalar orasida vujudga kelgan ziddiyatta yaqqol ko‘zga tashlandi. Kitobxon asar bilan tanishar ekan, dastlab ana shu og‘a-inilar o‘rtasida tug‘ilgan ziddiyat bilan to‘qnashadi. Durbek

keyingi boblarda dostonning oxirigacha Yusuf taqdiri va uning hayotiga bo'lgan munosabatini turli bosqichlarda hikoya qiladi. Yusufning akalari obrazi dostonda o'z maqsadlarini amalga oshirishda hech qanday yovuzliklardan qaytmaydigan makkor shaxslarni eslatadi. Ular o'z istaklarini ro'yobga chiqarishda, ukasi – Yusufni yo'q qilishning turli yo'llarini izlaydilar, Bu yo'lda ular hatto otalarini ham aldashga muvaffaq bo'ladilar, Lekin oxiri haqiqat tantana qiladi. Qan'on mamlakati'ga qahatchilik kelgach, akalari Yusuf oldiga bosh egib boradilar, Yusuf va uning o'g'li oldida tiz cho'kadilar. Og'a-inilar otasi boshchiligida bir-birlarining gunohidan o'tadilar.

Xalq og'zaki ijodining ta'siri bu dostonda juda sezilarlidir. Bu jihatdan Yusufning katta o'g'li Mishom bilan Yusufning akalari Sham'un va Yahudolarning olishuvi, shahar maydonida yotgan katta toshni siljitish uchun shart bog'lashlari xalq doston va ertaklarida uchraydigan traditsion motivlarni eslatadi.

Hazrati Mishom shahi bokaram,

Qo'ydi bu maydon ichida chun qadam.

Tutti Yahudo kamarin sher mard,

Erdi chu erlikta ul shahi fard.

Tashladi maydondin oni tashqari,

Bordi yiqila uzala besh qari.

Ayladi afg'on kan'onilar,

Keldi yana o'rtada Sham'un magar.

Hamrahi Mishom edi fathu zafar,

Ayladi Sham'unni andin batar.

Bu misralarda bayon etilgan fikrlar xalq qahramonlik eposlaridagi bahodirlar oldiga qo'yilgan shartlarga juda yaqin turadi. Dostondagi bunga o'xshash xarakterli detallar shoirning xalq o'g'zaki ijodidan ancha xabardor ekanligini tasdiqlaydi.

Durbek Qur'onning "Yusuf sura"si voqealariga ijodiy munosabati, Ilohiy kitob va doston matnidagi o'xshash hamda tafovutli nuqtalar xususida teran mushohadalar diqqat markazida tutiladi. Dostonda nafaqat Yusuf va Zulayhoning sevgisi, balki ota va farzand, aka – ukalarning o'zaro munosabatlari, bunda notavonbinlik va kechirimlilikning o'rnini, xalq taqdirini o'ylash, hukmdorlik qoidalari, musofirlikda o'zini tuta bilish, qiyinchiliklar oldida bukilmalik, doimo ezgulik tomonida bo'lish, vijdonni pok iymonni butun tutish, sabr –toqatli va qanoatli bo'lish g'oyalarining olg'a surilganligini kankret misollar orqali ko'rish mumkin.

Durbekning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan buyuk xizmati uning an'anaviy sujetni Qur'on doirasidan uzoqlashtirish va uni hayotilashtirishidir. Doston orqali u XIV asr oxiri XV asr boshlaridagi muhim voqealarni berishga muvaffaq bo'ldi. Durbekning "Yusuf va Zulayxo"si o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Durbek fors-tojik tilida ijod qilish an'analariga ergashmadi, balki o'z ona tilining homiysi va jarchisi bo'ldi, bu tilda muvaffaqiyat bilan yirik va go'zal epik doston yaratdi. Doston XV asr boshlaridagi xalq jonli tiliga juda yaqindir. Oradan besh yarim asr o'tgan bo'lishiga qaramay, bu doston tili jihatidan hozirgi kunning kitobxonlari uchun u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Qahramonning ruhiy kechinmalari tasviri voqealarning mohiyatini to'liqroq ochib berishga, personajlarning ma'naviy qiyofasi bilan yaqindan tanishishga yordam beradi. Yusufning onasi qabri ustida qilgan nola-fig'oni, chohdagi kechinmalari, zindondagi kayfiyati, Zulayhoning hijron azobi va boshqalar shular jumlasidandir. Durbek "Yusuf va Zulayho" dostonini o'ziga xos va maromiga etkazib yozgan. Ya'ni Durbek o'z

asarini zamon ruhi bilan to'yintiradi. Bu esa asarning ishonchli va jonli chiqishida katta rol o'ynagan.

Durbekning o'ziga xos mahorati dostonidagi ishq mavzusini salaflariga qaraganda ancha jo'shqin, keng va chuqur talqin qilishida namoyon bo'ladi. U o'zi murojaat qilgan mavzuni o'zi yashagan davr va zamon nafasi bilan sug'ora oldi va yangicha mazmun kasb etdi. Durbek o'zi yashab turgan muhitda yuz bergan tarixiy voqealarni, xususan temuriy shahzodalarning toj-taxt talashuvlari va xalq boshiga tushgan og'ir kulfatlarni kiritishga muvaffaq bo'ldi. Balx shahri xalqi og'ir azobni ko'p qiyinchiliklarga duchor bo'lgan Yusuf timsoli orqali ochib berishga intilgan Durbek va u yaratgan dostonning badiiy qiymati, tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati ham shundadir. Dostonning pafosi tinch-totuv yashashga chaqirishdan iboratdir. Demak, Durbek ilgari surgan g'oya ahillik, totuv hayot kechirishdir. Durbek dostonida Balx qamalini tasvirlaydi. Aynan ana shu qamal ichida qolgan Durbek "Yusuf va Zulayho" dostonini yozadi va uch oy davomida sodir bo'lgan zulmni shunday tasvirlaydi. Dostonda Yusufning akalari Misrga kelishi voqealari asarga yangicha birr uh baxsh eta olgan. Chunki Yusuf og'alardan jabr ko'rishiga qaramay, o'g'li Meshomga ularni bir uyga olib borib, ziyofat qilishni tayinlaydi va ularni og'alari ekanligini aytadi. Chuqur qayg'uga botgan Yusuf ko'ziga yosh olib turganda Zulayho buning sababini so'raydi, Yusuf og'alari kelganligini aytadi. Durbek dostonida bevosita og'a-inilar o'rtasidagi munasabat qanday bo'lishi kerakligini Ibn Yamin barcha og'alari ovqat yeb o'tirganda ko'ziga yosh oladi, uni kuzatib o'tirgan Yusuf nega sen ovqat yemayapsan deb so'raganda Ibn Yamin mening ham to'qqan og'am bor edi, u yonimda bo'lganida men bunchalik yolg'izlanib, qolmasdim deya javob beradi. Og'asi Yusuf niqob ortida ko'z yosh to'kadi va Misr shohi bo'lishiga qaramasdan bugundan boshlab men sening og'angman deb uning oldiga tushib ovqat yeyish tasviri yillar o'rtab kelgan sog'inch alamini ochib bera oladi. Akalariga o'zini tanitgan Yusuf asar so'ngida ularni kechiradi. Ulardan qancha

azobuqubat koʻrmasin Yusuf buni oʻz taqdiri ekanligini anglaydi. Yuqorida keltirilgan Yusufning tushi, onasining oʻgʻliga qilgan bashorati xuddi shu zaylda amalga oshadi.

## **II BOB. ABDURAHMON JOMIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA AN’ANA VA O’ZIGA XOSLIGI**

### **2.1. Jomiy va Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Yusuf komil inson sifatida**

Mualliflar Yusuf obrazini nafsi-notiqa, ya’ni jilovlangan va orif odamlarning nafsi timsoli sifatida ko‘rsatishga erishadi. Dostondagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya’qub payg‘ambarning nafsi – jonning moddiy tomonidir. Yusufning birodarlari sa’yi – harakatlari insondagi badaniy quvvatlar –ichki sezgilarning ramzidir. Xotin timsolida esa insonni istak va g‘azabga tortadigan hislarning badiiy ifodasi berilgan. Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi – muhabbat izhor qilishi insonda istak – xohishning ma’naviy tomonidir. Yusufning xotindan o‘zini olib qochishi va uning xohish – irodasiga ko‘nmasligi aqlning o‘z olamiga ustuvor turishi, hissiyot quli bo‘lmasligining ramzidir. Yusufning vazirlik va taxtga o‘tirishi, oliy kamolotga erishishi va o‘sha kamolotga aql, sabr – toqat sabab bo‘lganligini aniq tasvirlaydi.

Abdurahmon Jomiyning uchinchi dostoni bo‘lmish “Yusuf va Zulayho” 1483 yilda yozilgan. Sharqda bu dostonning juda ko‘p variantlari mavjud bo‘lib, uni qalamga olgan har bir ijodkor asarga biror o‘zgarish va yangilik kiritishga harakat qilgan. Jomiyning ushbu asari adabiyotshunoslar talqinicha, taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo‘lmay, aksincha insonni yuksak tuyg‘ular yo‘lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o‘tgan musaffo muhabbat g‘alabasini madh etuvchi jo‘shqin asardir. Ogahiy tarjimasini uchun asos qilib olingan Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni fors-tojik va turkiy tillarda bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali, ayni zamonda, badiiy jihatidan eng kuchlisi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu doston yaqin va o‘rta sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va katta shuhrat qozongan. Bu asarning xalq o‘rtasida bunday



shuhrat qozonishining sababi shunda ediki, Jomiy bu sujet orqali hayot va inson haqida, insonning turmushdagi o‘rni va burchi haqida o‘zining ajoyib orzu-umidlarini yorqin obrazlarda zo‘r mahorat bilan so‘zlagan edi. Jomiy yaratgan “Yusuf va Zulayho” dostoni insonni ulug‘lash, inson his-tuyg‘ularini tarannum etish, undagi aziz va muqaddas bo‘lgan muhabbat kechinmalarini madh etishga qaratilgan.

Bu doston, ayniqsa, o‘zining otash muhabbat tarannumi bilan ajralib turadi. Katta-katta boblar Zulayhoning otashin muhabbat tasviriga bag‘ishlangan:

Berib bir sarkash ilgiga inonim,  
Jafosi birla qilding qasdi jonim.

Solib boshing‘a zulmoti shabi g‘am,  
Manga ko‘rguzmas o‘zni uyquda ham.

Shu sabab ham u asrlar osha xalqimizning eng sevimli dostoni bo‘lib kelmoqda. O‘tmishda Jomiyning “Yusuf va Zulayho”sidan ilhomlangan o‘nlab ijodkorlar bu asarga katta hurmat bilan yondoshdilar. Ayrim ijodkorlar esa Jomiyning “Yusuf va Zulayho”sini o‘zbek tiliga tarjima qilib, xalqimiz orasida kengroq yoyilishiga harakat qildilar. Shoir bosh qahramon Yusufning taqdiri va uning hayotga bo‘lgan munosabatini turli vaziyatlarda tasvirlaydi. Yusufning insoniy fazilatlari uning zehni va zakovati odamlarga, o‘z eliga muhabbatida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

U behuda qon to‘kmasdan, aql-idrok bilan mamlakatni boshqaruvchi odil shoh darajasiga ko‘tariladi. Misr shohi Yusufni ozod qilishni buyurganda Yusuf elchiga shohingdan o‘z qo‘llarini kesgan ayollar nima bo‘lganini so‘ra deb aytadi. Yusufni nafsini yengib, komil inson darajasiga ko‘tarilgani uning naqadar pokiza qalbli inson ekanligini ko‘rsatib turgan uch nukta bordir.

Birinchiidan, podshoh tushining ta'бири haqida so'ralganda: "Agar meni bu zindondan ozod qilsa, aytaman", demay, batafsil ta'bir qilib berishi; ikkinchiidan, podshoh uni ozod qilishga amr qilganida ham, u zindonni darhol tark etmasdan, o'zining begunohligini isbotlab berishlarini talab qilishi; uchinchiidan, o'zining begunohligini isbotlashda ham o'zi tuz ichgan yerning hurmatini saqlab, "Borib meni shunday azobga duchor qilgan Zulayho nima bo'lganini bilib kelgin", demay, "Qo'llarini kesgan ayollar nima bo'lganini so'rab kel", deyishidir.

Dostonning qahramonlari, ayniqsa, Yusuf va Zulayho har qanday og'ir qiyinchilikka duchor bo'lganda ham o'z orzularining amalga oshishiga aniq umid bog'laydilar va bu muqarar tantana qiladi.

Shuningdek, Durbek o'z asarida Yusuf taqdiri va uning hayotiga bo'lgan munosabatini turli bosqichlarda hikoya qiladi. Shoir o'z qahramoni Yusuf faoliyatini berishda tobora dunyoviy hayotga yaqinlasib boradi.

Aytish joizki, unda insoniy fazilat ustunlik darajasiga kutariladi. Yusufdagi insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlar uning donoligida, xalqparvarligida, xushmuomalaligida, vatanparvarligida hamda otasiga bo'lgan farzandlik muhabbati kabilarda ochiq seziladi.

Shuningdek, Yusuf Misrda yashab turgan paytda o'zi tug'ilib o'sgan vatanidan ajralganidan shikoyat qilish holatlari xususida Durbekda ajoyib tasvirlangan. Xususan, Yusufdagi bu hislatlar xalq uchun qayg'uruvchi, insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishilardagina mavjud. Shunday bo'lishiga qaramay, dostonda tashqi muhitning – ilohiy kuchning aralashuvi ma'lum darajada sezilib turadi.

Ayniqsa, bu holni asar qahramonlari Yusuf va Zulayho faoliyatining rivojlanishida ularning orzu-umidlarning amalga oshuvida Xudoning vakili sifatida ishtirok etgan Jabroil obrazida ochiq ko'rish mumkin.

Albatta, o'sha sharoitda shoir buni chetlab o'ta olmas edi. Chunki, Durbek islom dini hukm surib turgan davrning vakili sifatida diniy e'tiqodlardan

holi emas edi. Shuning uchun ham dostonda diniy ruhni ifodalovchi epizodlar uchraydi. Ammo shoirning diniy e'tiqodi dostonning umumiy qimmatiga putur etkazmaydi. Chunki dostonda ilgari surilgan dunyoviy muhabbat motivlari va hayotiy masalalar ustunlik qiladi. Shuningdek, dunyoviy motivlarning Durbek tomonidan zo'r shoirona mahorat bilan kuylanishi o'zbek dunyoviy adabiyotining yangi bir etapga kutarilishida katta rol o'ynaydi.

Xususan, muhabbat bobida qalam surgan shoir ishqni Yusuf va Zulayho timsolida hayotiyashtiradi. Durbekning ishq bobida shoh va gadoning teng ekanligini tasdiqlab o'tishi juda e'tiborga loyiqdir.

Oh, ajab dard erur dardi ishq,  
Har kishi bo'lmas dag'i bil mardi ishq.  
Ishq, o'ti har yerdakim urasa alam,  
Bilki, qilur jumla vujudin adam.  
Ishqi jon mulkida sulton erur,  
Shohu gado anga chu yakson erur<sup>16</sup>.

Dostonning ba'zi o'rinlarida qahramonlar faoliyatiga aralashayotgan farishtalar, Jabroil, afsonaviy obrazlar uchraydi. Ammo shoir dostonning markaziy doirasiga hayotda ko'proq uchraydigan maishiy detallarni singdirishga uringan va buni muvaffaqiyatli bajara olgan. Durbek dostonda baxtsizlikdan qutilmoq uchun chidash, sabr-toqat qilish kerakligini aytadi.

Sabr bila tengri berur komi dil  
Sabr qilu sabr qilu sabr qil<sup>17</sup>.  
Tengri berur, sabr yo'lida murod,  
Sabr qil ey poki ruh, noki zod<sup>18</sup>.

---

<sup>16</sup> Durbek, «Yusuf va Zulayxo», Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти, қўлёзмалар фондида, инв. № 1433, в: 54 а.

<sup>17</sup> Durbek, «Yusuf va Zulayxo», Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти, қўлёзмалар фондида, инв. № 1433, в: 50 а.

<sup>18</sup> Шу қўлёзма, в: 50 б.

Ayni mana shu sabr Yusufni poklikka, nafsni yengib, butun bir mamlakatni boshqarib, xalqni qahatchilikdan, ochlikdan omon olib chiqadi.

Bu g'oya asarning bosh qahramonlari bo'lgan Yusufda ham, uning ma'shuqasi Zulayhoda xam yorqin ifodalangan. Buning sababi dostonning Balx shahri qamal qilingan paytda yaratilganligidir. Shu tufayli shoir: "Qanoat qilmoq kerak, sabr qilgan kishi xoh erta, xoh kech, albatta u taqdirlanadi", - degan xulosaga keladi.

Jomiy dostonida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ'ib qilgan, kishilarni ma'rifatga, yurtparvarlikka, to'g'rilik, insof va iymonga chaqirgan. Bu vazifani Yusuf obraziga yuklar ekan, insoniy fazilatlarining yorqin namunasi aks ettirib boradi. Mutafakkir ijodida "muhabbat" tushunchasi alohida o'rin egallaydi. Bu tushuncha nazm uchun an'anaviydir.

Ana shu oliy muhabbatni kuylashga Jomiy ijodida keng o'rin berilgan. Shu bilan birga uning baytlarida insonlar orasidagi muhabbat kuylanadi. Insoniy muhabbat, unda go'zallikning hosiyati kabi muammolar «haft avrang» tarkibiga kiruvchi "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol" kabi dostonlarda chuqur tahlil etiladi.

"Yusuf va Zulayho" dostonida esa shoir an'anaviy sujetning yangicha talqinlarini berdi. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulmni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Buni u ayniqsa shohlar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, xalq bexavf-bexatar yashaydi. Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rin tutadi. Albatta, Jomiy hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqish Evropada ancha ilgari boshlangan. Jumladan, 1824 yili

Mavlono Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni Vinses fon Rozensvayg-Shvannau tomonidan nemis tiligi tarjima qilinib, nashr etilgan<sup>19</sup>.

Shuni e’tiborga olib bo’lsa kerakki, mutafakkir shoir “Yusuf va Zulayho” dostonida o’g’liga qaratilgan nasihatlarida, mansab eshigiga aslo yaqin yo’lama, “ki az har mansabe bemansabi beh” – “har qanaqa mansabdan mansabsizlik yaxshi” deb yozadi<sup>20</sup>.

Jomiy “Inson kimni xayol qilib erding, bizga dag’i ko’rguz?” – deb so’roq tashlaydi. Ushbu savolning o’ziyoq insonparvar shoirning, xalq moli va jonini zulukday so’rgan mansab ahliga munosabatini nihoyatda aniq aks ettiradi. Jomiy mansabni emas, mansabparastlikdan tug’ilajak bedodlik, noinsoflik, razolatkorliklarni qoralagan. Martabada ko’tarilib, odamiylikda butkul tubanlashgan erksiz-ixtiyorsiz odamlar qiyofasida u millat, saltanat tanazzulini ko’rgan, dehqon, hunarmand mehnatini o’ylab esa diliga yorug’ hislar oqib kelgan. “Yusuf va Zulayho” asaridagi ba’zi bir voqealar hozirgi kunlarda ham epik va she’riy asarlarda tilga olinmoqda yoki turli ko’rinishlarda ishlatilmoqda. Rivoyatdagi birinchi voqea go’zal qul bolaning bozorda kim oshdi savdosiga qo’yilishidir. Cho’ldan o’tayotgan karvon quduqdan Yusufni topib oldi. Karvonboshi Molik Misrga kelgach, Yusufni qul bozorida sotmoqchi bo’ladi. Yusufni ko’rgan Zulayxo tushida ko’ngil bergan yigit shu ekanini tanib uni sotib oladi. Zulayxo Yusufni o’z uyiga keltirib uni o’zining xizmatchisi qilib saqlaydi. Zulayxoning Yusufga bo’lgan muhabbati tobora avj oladi. Ammo Yusuf Zulayxoga befarq edi. Zulayxo Yusufga o’z muhabbatini izhor etadi. Ammo Yusuf bunga qarshi bo’ladi. Shunda Zulayxo g’azabga kelib, Yusufni zindonga soldiradi, ammo o’zi bundan ko’proq aziyat chekadi. Chunki endi Yusufni ko’rmoqdan mahrum bo’lgan edi. Yusuf zindondagilarning tushini ta’birlaydi va ular ro’yobga chiqadi. Shundan so’ng Misr shohining tushini ham ta’birlaydi. Misr shohi Yusufning aqlu zakovatiga tan beradi va uni zindondan ozod qiladi,

---

<sup>19</sup> Edward Browne. A literary history of Persia. Vol. 3. Cambridge. 1928.

<sup>20</sup> Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi. -T., 1991. - 64 b.

hamda Misr Azizi etib tayinlaydi. Yusuf tadbirkorlik bilan ish tutib, Misr xalqini ochlik va qahatchilikdan asrab qoladi. Elu- yurt o'rtasida katta obro' qozonadi.

Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonini tojik tilidan o'zbek tiliga birinchi marotaba Muhammad Rizo Ogahiy tarjima qilgan edi. Ogahiy dostonning g'oyaviy asoslarini to'liq saqlab qoldi, badiiy xususiyatlarini yuksak iste'dod va mahorat bilan o'zbek tilida aks ettirdi. Asarning asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'zgarmaydi, asar qiymatiga putur etmaydi. Aksincha, Ogahiy o'z iste'dodi orqasidan originaldan hech ham qolishmaydigan o'zbekcha variantini yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Xullas, "Yusuf va Zulahoning deyarli hamma nusxalarida, xususan Durbek nusxasida uning qahramonlari har qanday baxtsizliklariga ham qattiq jasorat va iroda bilan ulug' insoniy fazilatlarga ega bo'lganlar, shu sabab umri boqiy bo'lib qolganlar.

## **2.2. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Zulayho timsolining qiyosiy tahlili.**

“Yusuf va Zulayho” dostonlarida Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramon Zulayhoni go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar<sup>21</sup>. Durbek xotin-qizlar latofati va zakovatini yangi jixatlar bilan boyitgan, Zulayho timsolida sadoqatli sevgi sohibasi obrazini yarata olgan.

Manbalarda keltirilishicha, Yusufni yo‘ldan urish uchun Zulayho qo‘lidan kelgan barcha ishni qiladi.

Xususan, bir qasrning ichki devorlarini shunchalar ma’nodor, kishining hirsini junbushga keltiradigan suratlar bilan bezattiradi. Yusuf qayoqqa qaramasin, devordagi suratda o‘zini Zulayhoning og‘ushida turgan holatda ko‘radi.

Bu sahnaning batafsil tasviri xuddi mavlono Jomiyning dostonidan olingan Jomiydan 400 yilcha ilgari yashab, hukm surgan G‘aznaviylar sulolasining vakillaridan biri bo‘lmish Sulton Mas‘ud, aytishlaricha, hazrat Jomiyning ona shahri bo‘lmish Hirotdagi ishratxona qasrlaridan birining devorlariga shunaqa ma’nodor suratlar chizdirgan ekan.

Qasrning o‘zi yo‘qolib ketganiga qaramasdan, u to‘g‘ridagi ma’lumotlar Hirotdagi kishilar ongida g‘ayriixtiyoriy ravishda og‘izdan og‘izga o‘tib, saqlanib qolgan bo‘lsa ajab emas. O‘z-o‘zidan ma’lumki, mavlononing “Yusuf va Zulayho” asaridagi bu qasr tasviri XVI asrdagi xassos mo‘yqalam ustalarining ham tuyg‘ularini junbushga keltirgan. Serburchak qasrning pillapoyalaridan yugurib, qochib ketishga harakat qilayotgan Yusuf alayhissalom aks ettirilgan mo‘jaz rangtasvirlar anchagina.

Ularda Zulayho qizil kiyim kiygan sohibjamol sifatida tasvirlangan. (Qizil kiyim asosan kelinlar kiyimidir, ammo umuman olganda alangali

---

<sup>21</sup> Дурбек. “Юсуф ва Зулайхо” достони. Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти. Тошкент. 1959. 60-б.

muhabbatni ham ifodalashi mumkin). Yusuf alayhissalom esa yashil kiyimda tasvirlangan. Yashil kiyim sohibi avliyolar, paygʻambarlar va umuman jannatiy kishilar safidandir. Yoʻldan urish sahnasining eng qiziq joylaridan biri Zulayhoning but sanamga munosabatidir. Zulayho avvalboshda butparast boʻlganligi sababli, uning yotogʻida but boʻlgan.

Zulayho Yusuf alayhissalomni yoʻldan urish, u bilan yaqinlik qilish uchun xushomadlar qila boshlaganda, albatta, tagʻin but koʻrib qolmasin degan oʻyda uning yuzini teskari qilib yoki boshiga bir roʻmol yopib qoʻyarkan.

Bu sahnada uzoq oʻtmishdan qolgan odatlar tasvirlangan boʻlishi mumkin, chunki Jomiy oʻz asaridan birida shunday yozadi: «Oʻzi sigʻinadigan narsa bilan muloqotda oʻzini yaxshi tutishni barcha kishilar Zulayhodan oʻrganishlari lozim, chunki u Yusuf alayhissalom bilan bir xonada yolgʻiz qolib, undan hojatini chiqarishni iltijo qilayotganda, but uning yomon, uyat ish qilmoqchi boʻlayotganini, odob chegarasidan chiqib ketayotganligini sezib qolmasin degan oʻyda albatta butning yuzini yopib qoʻyardi.

Zulayho bir butdan uyalsa, Yusuf alayhissalom har yerda hoziru nozir, hamma narsani koʻrib, bilib turuvchi, Alloh taolodan uyalaman, deb Zulayho huzuridan chiqib ketadi. Zulayho uning ortidan yugurib, kiyimiga yopishadi. Kiyim orqa tarafdin yirtiladi va Yusuf alayhissalomning begunoh ekanligini isbotlashda dalil boʻladi.

Mavlono Jomiyning dostonida ham but sanam toʻgʻrisida soʻz yuritilgan. U yerda aytilishicha, Zulayho keksayib, Yusuf alayhissalom unga baribir eʼtibor qilmasligiga koʻzi yetgach, butni mayda-mayda qilib tashlaydi, chunki Zulayho qancha yillar davomida unga oʻtinch-iltijo qilgan boʻlmasin, but Yusuf alayhissalomning visoliga yetishda unga yordam berolmagan edi-da. Mavlono Jomiy yasharish voqeasini koʻngil torlarini chertib ketadigan bir sahna orqali shunday tasvirlab beradi:

Bir kun Zulayhoni Yusufi Kanʻon

Koʻrdi, u tuproqqa belanmish chunon.



Ko'zlariga parda tutilgan go'yo,  
Ko'rinmas ko'ziga nurli bu dunyo.  
Betoblik, nochorlik qa'rida beun,  
Yuz ming malomatga bo'libdi tutqun.  
Yuz tashvish ufurar bir nafasida.  
Faqat Yusuf nomi ohu, sasida.  
Oh chekar tuproqda o'tirgan kuyi,  
Izidan tuyay deb Yusufning bo'yin.  
Yusufning oyog'i tekkan bu tuproq,  
Koshki sochilsa, der, ustimga ko'proq.  
Shunda Yusuf dedi: Ey Qodir Egam,  
Nahotki yashashga loyiq bu telba?  
Tezroq jonini ol, yo'qsa bu «dildor»  
Sening do'stlaringni etar sharmisor.  
Jabroil Allohdan keltirdi nido,  
Yo'q, uni etmasmen jonidan judo.  
Zero, u voz kechib yo'g'u boridan,  
Nafaqat mulk, balki hayo-oridan,  
Mening bir do'stinga orzumand bo'lmish,  
Shul sabab nazdimda arjumand bo'lmish.  
Senga sodiqlardan, tingla, ey rafiq,  
Men ham marhamatim tutmasmen darig'.  
G'unchalar ochilmay so'lmasin derman,  
Do'stimning do'stlari o'lmasin derman.  
Necha yil Men uni etdim imtihon.  
Yoshligin qaytargum endi begumon.  
U seni sevadi jonidan ortiq.  
Shul sabab u Mendan senga bir tortiq.

Aybmas devonavash tuyulsa oshiq.  
Oshiqni o'ldirish gunoh, chunki ishq,  
Hijronlar ko'r etmish bu bandamizni  
Sevgani-chun Bizning Yusufimizni.  
Sen esa ko'nglini anglamay, inon,  
Dunyoni etibsan unga zimiston.  
Uning ko'z yoshlari ishqdan dalolat,  
Arzir, bersak endi loyiq mukofot.  
Albat yoshligini bergum qaytarib.

Shunday qilib, Zulayho sanamga sajda qilishdan bosh tortgach, Yusuf uni eshitishni va oldiga kirishiga ruxsat beradi. Zulayhoga qarab tila tilagingni bugun hammasini bajaraman deganda Zulayho yoshligini so'raydi va uning yoshligi qaytadi. Shunda Yusufning ham qalbida muhabbat uyg'onadi, muhabbati qanchalik kuchli bo'lmasin Zulayhoga oshkor qilmaydi. Jabroyil kelib sizlarning nikohingiz samoda o'qildi. Uni nikohingga qabul qil deb aytganidan so'nggina qalbini Zulayhoga oshkor etadi, ularning to'ylari bo'ladi. Nikoh kechasi Zulayhoning bokira ekanligining sababini so'raydi. Jomiy buning sababini quyidagicha izohlaydi:

Go'daklik chog'imda tush ko'rgan edim,  
Sening nom-u nishoningni so'rgan edim,  
Hurmat palosini oshirgan eding,  
Menga bu naqdni topshirgan eding,  
Bu naqdni har kimdan asrab keldim pos,  
Bihamdulloh edi naqdim omonat,  
Hech kimdan yetmadi unga xiyonat.

Yagona Allohning hidoyati ila maqsadiga erishadi va sevgani bilan qovushadi. Yagona Allohga sig'inish yo'li eng to'g'ri yo'ldir.

Zulayho Yusuf alayhissalomning ishqida lov-lov yonib, uning vasliga yetish istagida o'rtanib yurar ekan, kundan-kunga tubanlashib boradi. Ammo u

istaklaridan voz kechgach, ya'ni nafs ammoraning ustidan g'olib chiqqach, Alloh taolo unga yoshligi va go'zalligini qaytarib beradi. Durbek dostonida bu manzara quyidagicha beriladi: Zulayho Alloh yagonaligini tan olib, Yusuf dinini qabul qilganidan so'ng Yusuf Zulayho ishqida yonib, kulga aylana boradi. Endi charxpalak teskari aylanadi, Oshiq ma'shuqa tomon qanchalik intilsa, ma'shuqa o'zini shunchalar chetga tortadi, oshiq faqat qalbidagi muhabbat bilan chekladi.

Zulayho Yusufning muhabbatini rad etib, o'zini Alloh ishqiy yo'lida ekanligini aytib, Yusufni rad etadi. Yusuf tobora ishq qurboniga aylana boradi. Ishq kuyida Zulayhodan kam jabr ko'rmaydi. Nihoyat, ularning to'ylari bo'lib, o'tadi. Farzandli bo'lishadi va baxtli hayot kechira boshlashadi.

Zulayho ham xuddi Yoqub alayhissalomdek to'xtovsiz yig'ilardan ko'zi ko'r bo'lib qoladi va Yusuf alayhissalomdan taraladigan xushbo'ylarga intiq-intizor bo'ladi. Hujviriyy bu haqda shunday yozadi:

“Zulayho Yusuf alayhissalomni shunchalar qattiq sevadiki, hatto uning uchun o'limga ham tayyor bo'ladi. Shu sababdan, to ular qo'shilishmaguncha Zulayhoning ko'zlari ochilmaydi”.

U faqat Yusufning yodi bilan tirik; bamisoli jon betinim ravishda ilohiy mahbub tomon intilgani singari, Zulayho faqat Yusufning ismini takrorlaydi. Ibn Arabiy o'zining “Futuh al-Makkiya” asarida shunday yozadi: «Aytishlaricha, bir kuni Zulayho kimningdir kamonidan uzilgan o'qdan yarador bo'ladi. Jarohatdan oqqan qon yerda “Yusuf, Yusuf”, degan izlar qoldiradi, zero, Zulayho tinimsiz ravishda “Yusuf, Yusuf”, deb takrorlab yurar, bu ism uning tomirlaridagi qonga ham singib ketgandi”.

Ibn Arabiy ham shahid ketgan so'fiy Hallojning qoni yerga oqib, u yerda Alloh taoloning nomi shaklida iz qoldirganini bayon qila turib, Zulayho voqeasini misol qilib keltiradi. Hijron va shubha damlari o'tib, Zulayhoning beqiyos sadoqati tegishlicha mukofotlanadi. Hakim Sanoiy o'z asarlarida bu mavzuga tez-tez murojaat qilib, o'z o'quvchilarini “Zulayhodek sabr-toqatli”

bo‘lishga chaqiradi, zero mahbubning yaqinligi mahbubaga yoshlik, go‘zallik ato etadi.

Shunday qilib, chinakam oshiq siymosi bo‘lmish Zulayho avvaliga insoniy jon, ya’ni Qur’oni karimning “Yusuf” surasida tilga olingan “nafsi ammora”, ya’ni “yomonlikka undaguvchi nafs”ga zanjirband bo‘ladi, so‘ngra esa to‘xtovsiz ichki kurashlar, dard-iztiroblar chekish orqali u bora-bora o‘z Xojasiga qaytib borishiga amin bo‘lgan “orom topgan nafs jon” timsoliga aylanadi.

Yusufning ko‘ylagidan anqib turgan bo‘ylarni tuyib, ko‘zlari ravshanlashadi, go‘zallikdan bahramand bo‘ladi. Bu bo‘ylar mahbubdan darak beradi. Mahbubning yaqinligini his etgach, iztiroblarda qaddi dol bo‘lgan ayol qaytadan yosharib ketadi.

Mavlono Jomiy va unga taqlid qilgan shoirlar o‘z asarlarida uzoq davom etgan yonish-kuyishlardan so‘ng bir-birining vasliga yetgan bu ikki oshiqning to‘ylarini barcha tafsilotlari ila tasvirlab berganlar. Bu asarlarda aytilishicha, bir vaqtlar kasalmand hokimga xotinlikka berilgan Zulayho hali-hanuz bokira qiz ekan. To‘y tugagach, bir vaqtlar Zulayho Yusuf alayhissalomning ortidan quvib, ko‘ylagini yirtgani singari, Yusuf alayhissalom ham yosh kelinning ko‘ylagini yertadi.

Bu tasvirlar endi “Yusuf va Zulayho” tarixining chuqur so‘fiyona mohiyatiga aloqador bo‘lmasa kerak, chunki bular insoniy go‘zallik va muhabbatning davomi, yosh kelin-kuyovning turmushidagi ichki jihatlardir.

Jomiy qalamida real insoniy sevgini tarannum etuvchi ajoyib ishqiy-sarguzasht asarga aylangan. Dostondagi butun-butun boblar Zulayxoning otash muhabbati tasviriga bag‘ishlangan. Shoir sevgan qahramonining ishq va sadoqatini haroratli baytlarda, hayajonli epizodlarda qalb qo‘ri bilan tarannum etadi. Jomiy Zulayxo xarakterini mukammal yaratish uchun uni ko‘proq o‘z tilidan gapirtiradi. Asosiy e‘tiborini Zulayxoga qaratadi. Shoir Zulayxodagi sof insoniy muhabbat tuyg‘ularini tasvirlar ekan, bu obrazning inson qalbiga xos

orzu-tilaklari, his-tuyg'ulari, o'z baxtiga intilishlarini turli sharoitlarda, holat va vaziyatlarda ko'rsatishga harakat qiladi. Jomiydagi Zulayxo samimiy muhabbat bilan yashovchi, bu yo'lda tinmay harakat qiluvchi obraz. Shu boisdan Zulayxo butun asar davomida oshiqona faryod chekib o'tadi. o'z alamiga yolg'iz o'zi qovuriladi. Durbekning o'ziga xos mahorati dostonidagi ishq mavzusini salaflariga qaraganda ancha jo'shqin, keng va chuqur talqin qilishida namoyon bo'ladi. U o'zi murojaat qilgan mavzuni o'zi yashagan davr va zamon nafasi bilan sug'ora oldi va yangicha mazmun kasb etdi. Uning muhabbati yor vasliga yetishi amri maholligini bilsalar-da, ammo otashin ehtirolarda qovrilib yurgan barcha oshiqalar uchun yorqin timsoldir. Zulayho bora-bora sevgilisi uchun hatto o'limga ham tayyor bo'lgan jasur, kuchli qahramonga aylanadi.

Durbek o'zbek dunyoviy adabiyotida yaratilgan ijobiy ayollar obrazini yanada konkretlashtirdi. Shoir Zulayho qiyofasida haqiqiy sevgi egasi bulgan ayol obrazini bera olgan. Jumladan, Zulayho umidsizlikka tushmaydi. U tushida kurib oshiq bo'lgan Yusufga etishmoq uchun har kanday og'irliklarga bardosh beradi. Zulayho xatto Misr Aziziga yanglish turmushga chiqsa xam istiqomat qiladi. Jomiyning bu dostonida Zulayxonning otashin muhabbati jomiyona kuylanadi. Yusuf haqidagi har qanday san'at asari bilan qiyosiy tahlil etilishida chegarasiz hamdir. Taqqos etib bo'lmaydigan jihati Yusuf qissalari hikmat va taqdir bitigi, ibrat va namuna sabog'i sifatida bunyod etilganligi bo'lsa, qiyos imkoni kengligi esa unda inson va hayot masalalari majozan bo'lsa-da, barcha jihatlari bilan ifoda etilganidadir. Ya'ni, inson va hayotga tegishli neki muhim bo'lsa, u "Yusuf" qissalarida o'z aksini topgan.

## XULOSA

Abduraxmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida ishq ilohiy masalalari etakchilik qilsa, Durbek qalamiga mansub “Yusuf va Zulayho” dostonida esa xaloskorlik, sabr-u matonat masalalari e’tiborga olinganligi ko‘rinadi. Xullas har bir davr hamda ijodkorning o‘z “Yusuf va Zulayho”si bor. “Yusufnoma”lar badiiy adabiyot uchun o‘lmas mavzular xazinasidir. U haqda qancha mulohaza yuritilsa, mavzuning shuncha qirralari namoyon bo‘laveradi. Mavzu talqinida epik va lirik tasvirlar o‘ziga xos jozibador olam yaratganligi ko‘rinadi. Epik tasvirda ko‘lamdor voqelik aks etgan bo‘lsa, lirik talqinda voqealar ramziyligiga e’tibor berilgan. Yana bir xulosa shundaki, lirik talqinlarda Yusuf obrazi bilan yonma-yon ravishda Zulayho nomi deyarli uchramaydi. Demak, she’riyatda “Yusufnoma” mavzusi o‘zgacha ruhda talqin etilgan. Xulosa qilinganda hamma davr va adabiyotlarda bu mavzu madadkor ruh, maftunkor badiiyat olami sifatida o‘quvchilar qalbini o‘ziga rom etgan dilbar mavzudir.

O‘zbek xalqi qadimiy tarixga, boy o‘tmish merosga ega. Ko‘p asrlik xalqning tarixi yozma yodgorliklar va og‘zaki ijod namunalari orqali avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq milliy-ma’naviy merosga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotshunoslik ilmida qatag‘onga uchragan an’analarimiz, diniy va tasavvufiy adabiyot hamda uning badiiy adabiyotga ta’siri masalalari xususida ochiq-oydin mushohada yuritish imkoniyati tug‘ildi. Adabiyot tariximizda mustaqil va sobit o‘rniga ega bo‘lgan bir qator durdonalarimizni talaba yoshlarimizga yetkazish imkoni ham ana shu milliy mustaqilligimiz sharofatidir.

Jomiy va Durbekning “Yusuf va Zulayho” asari nazmiy dostonlar sifatida o‘zbek mumtoz badiiy nazmining shakllanishi va taraqqiyotida ayricha ahamiyatga molik.

Unda insonning komilligi, avvalo, o‘z hatti-harakati, o‘z so‘zi oldidagi mas’ullikdan iborat bo‘lib, bu Oллоh, uning rasuli oldidagi mas’ullikdir, - deya qat’iy qarorga kelinadi. Ya’qub alayxis-salom Yusufni har qancha sevmasin, Mubashsharaning ham shu qadar sevimli farzandi Bashirni sottirib, unga ko‘rgazgan shafqatsizligi ajri sifatida o‘g‘lidan ajralish jazosiga giriftor bo‘lishi zamirida ham o‘sha mas’ullik yotadi.

Bunday maylni Yusuf qismatida sodir bo‘lgan ziddiyatli voqealar. jarayonida ham ko‘zatish mumkin. Asarda Yusuf tavbasi sabr-toqat asosida kechadi va uning o‘zi ham kechirimli qalb sohibiga aylanadi. Zulayxonning tavbasi esa uning butdan kechishi orqali Yusuf vasliga erishuvi lavhalarida namoyon bo‘ladi. Adib o‘zining Komil Inson haqidagi g‘oyalarini shu xilda ilohiy-tasavvufiy qarashlar asosida ilgari surib, haqiqiy "Ahsan ul-qisas" yarata oldi.

Durbek doston davomida badiiy asarning shakl va mazmun butunligiga alohida e’tibor beradi. Doston tarkibida rivoyat, hadis, bashorat, she’r, bayt, g‘azal, oyat va tush namunalarini berib, uning o‘qishligini, kitobxonga katta zavq berish orqali o‘zining insonsevarlik ruhidagi qarashlarini ta’sirchan yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Durbek “Yusuf va Zulayxo” qissasini o‘ziga xos va maromiga etkazib yozgan. Ya’ni Durbek o‘z asarini zamon ruhi bilan to‘yintiradi. Bu esa asarning ishonchli va jonli chiqishida katta rol o‘ynagan. . Demak, Durbek ilgari surgan g‘oya ahillikda totuv hayot kechirishdir. Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni va Jomiyning “Yusuf va Zulayxo”si bilan qiyosiy o‘rganilib, umumlashma xulosalar chiqarildi. Tadqiqotdan shu narsa ayon bo‘ldiki, yuqoridagi dostonlar mavzu jihatidan, sujet tomonidan o‘xshash bo‘lishi mumkin, ammo ulardagi ilgari surilayotgan g‘oya tomoman o‘zgacha mazmun kasb etadi. Durbek dostonining pafosi tinch-totuv yashashga chaqirishdan iborat. Jomiyning dostoni esa real insoniy sevgini tarannum etuvchi ishqiy-sarguzasht asardir. Shu o‘rinda Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” kitobida ta’kidlanganidek “...o‘tmishdagi

allomalarning bebaho merosi yosh avlod ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda"<sup>22</sup>. Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV asrdagi yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi.

Demak, mazkur doston yosh avlodning ma'naviyatini shakllanishida katta hissa qo'shadi. Jumladan, asardagi Yusufning sabr-toqatliligi, vatanparvarligi va barcha jamiki fazilatlari yoshlar uchun o'rnak hisoblanadi. Yusuf (a.s) haqida yaratilgan asarlar shaklan o'zgarmasligi, barqaror sujetga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu sujet asosida yaratilgan asarlar esa nihoyatda rang-barang motivlar kasb etadi. Unda inson va hayot uchun zarur bo'lgan barcha masalalar talqini mavjud. E'tiborlisi bunday hodisa faqat sharq adabiyotigagina xos bo'lib qolmasdan, balki dunyo xalqlari adabiyoti tajribasida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Uni jahonning daho ijodkorlari ham badiiy adabiyot qonuniyatlari orasidagi eng maqbul uslub va ijobiy hodisa ekanligini ta'kidlaganlar. Qur'on va uning qissalari hidoyatdan iborat bo'lmay, asosiy maqsad kishilarni saodat yo'liymon-islom yo'liga targ'ib qilish, payg'ambarlarning o'z hayotlarida ahli basharni ezgulikka da'vat etib kelganlarini ifodalashdir. Bu ezgu fazilatlarning barchasi hazrat Yusuf alayhis-salom siymosida gavdalanadi.

Alohida bir sujetning muayyan badiiy adabiyotdagi tarixiy tadrijini o'rganish g'oyat qiziqarli ilmiy xulosalarga kelish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan qaraganda, Yusuf va Zulayxo nomlari bilan bog'liq ishqiy-maishiy sarguzasht o'zgacha mohiyat kasb etadi. Yusuf va Zulayho sarguzashti ilohiy kitoblarda ifodalangani sababli tabarruklashtirildi va nodir diniy sujet sifatida ham og'zaki, ham yozma badiiy adabiyotda qayta – qayta ishlanib, sayyor mavzu maqomini oldi. Shundan Yusuf va Zulayho nomi ular bilan bog'liq lavhalar barcha diniy e'tiqoddagi xalqlar badiiy adabiyotida ko'zga tashlanadi.

---

<sup>22</sup> Karimov . I. A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.T.: Ma'naviyat, 2008.- 12- bet.



Ilmiy kuzatishlardan ayonlashuvicha, bu sayyor sujet asosida hozirgacha yahudiy, arab, fors-tojik, turk, o‘zbek, ozarbayjon, tatar, turkman, kurd, panjob, kajorat, hind, urdu, afg‘on, gurji, latish va olmon tillarida bir yuz ellikdan ortiq she’riy va nasriy asarlar yaratilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor — ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. — T.: O‘zbekiston, 2009-y. 16-17- betlar.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Шарқ, 1997-й. 23-25-бетлар.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ асрга интилоқда. — Т.: Ўзбекистон, 1999-й. 31-33-бетлар.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият — энгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008-й 12-15-бетлар.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — Toshkent: O‘zbekiston, 2012-y. 39-bet.

### II. ILMIY ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. — Тошкент. Ўқитувчи, 1964-й. 384-бет.
2. Абдуллаев В, Валихўжаев Б. Мирий ва унинг замондошлари, 1977-й. 132 бет.
3. Абдуллаев В. Сайланма. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1982-й. 440 бет.
4. Абдурахмон Жомий. Сайланма. — Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1971-й. 357-бет.
5. Алишер Навоий. МАТ.ХВИ ж. Тарихи анбиё ва ҳукамо. — Тошкент. Фан, 2000-й. 336-бет.
6. Алоуддин Мансур. Юсуф ва Нур сураларининг тавсифи. — Тошкент. Фан, 1992-й. 64-бет.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт жилдлик. Тошкент. Фан, II жилд, 1983-й.

8. Бобожон Рамз. Юсуф ва Зулайхо. — Тошкент. Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000-й. 6-7 бет.
9. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. — Тошкент. Фан, 1974-й. 152-бет.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. — Тошкент. Ўзбекистон, 1993-й. 192-бет.
11. Каримов Ҳ. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. — Тошкент. Ўқитувчи, 1987-й. 320-бет
12. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. — Тошкент. Ўқитувчи, 1965-й. 748-бет.
13. Маллаев Н.М. Абулқосим Фирдавсий. — Тошкент. Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт, 1962-й. 91-бет.
14. Маънавият юлдузлари. — Тошкент. 2001-й. 221-бет.
15. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. — Тошкент. Ёзувчи, 1990-й. 240-бет.
16. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. — Тошкент. Ёзувчи, 1991-й. 273-бет.
17. Орзибеков Р. XIX аср ўзбек адабиёти тарихига доир материаллар (Каттакўрғон шоирлари). — Самарқанд, 1985-й, 103-бет.
18. Равшан О. Туркий Юсуф ва Зулайхо. — Тошкент. 1995-й.
19. Расулов Х. Ўзбек классик шеърлятида халқчиллик. — Тошкент. Фан, 1982-й, 136-бет..
20. Sanaev I. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti. — Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti, 2009-y.
21. Таъбирномаи Юсуф алайҳиссалом. — Тошкент. Ўзбек маскани, 1990-й, 31-бет.
22. Уч булбул гулшани. Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. — Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1986-й, 248-бет.
23. Ўзбек Совет энциклопедияси. I жилд. — Тошкент. 1976-й, 656-бет.

24. Қаюмов А. Назм ва тафаккур қуёши. — Тошкент. 1992-й.
25. Қуръони Карим. — Т.ошкент. Чўлпон, 1992-й, 544-бет.
26. Ҳайдаров С. Дурбек ва унинг “Юсуф ва Зулайҳо” достони. Тошкент.1959-й.
27. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг методи тарихидан. — Тошкент. Фан, 1970-й, 330-бет.
28. Ҳакимов М. Шарқ қўлёмаларига доир терминларнинг изоҳли луғати, 1982-й, 4-сон, 67-бет.
29. Ҳоҗиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. — Тошкент. Шарқ, 1999 й, 240-бет.
30. Шомухамедов Ш. Абдурахмон Жомий (ҳаёти ва ижоди). — Тошкент. 1963-й.

### **III. DISSERTATSIYA VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI**

1. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. — Тошкент. 1993-й, 39-бет.
2. Остонақулов И. “Қисаси-Рабғузий” адабий асар. — Тошкент. 1993-й.
3. Сафарова Ҳ. Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайҳис-салом” асари манбалари. — Самарқанд, 2001-й.
4. Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. — Тошкент. 2001-й.
5. Ҳайдаров С. Ўзбек дунёвий адабиётининг ривожланишида Дурбекнинг роли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. — Тошкент. 1962-й.

#### IV. GAZETA VA JURNAL MAQOLALARI

1. Қурбонов Абдулхамид. “Юсуф ва Зулайхо” қиссасининг ижодий талқинлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997-й, №1, 47-50-бетлар.
2. Иброҳимова Э. Жомий талқинида Зулайхо образи. Адабий мерос, 1990-й. 2(52)-сон. 43-48-бетлар.
3. Ирисов А. Ибн Синонинг “Юсуф қиссаси” // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1971-й. №2, 55-59-бетлар.
4. Исламов Х. Шоҳаким Холиснинг “Юсуф ва Зулайхо” қўлёзмаси. Адабий мерос, 1982-й. 3(23)-сон. 80-81-бет.
5. Мирзаев А. А. Жомийнинг “Юсуф ва Зулайхо” достонида А.Навоий образи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972-й. №1, 19-25-бетлар.
6. Расулов.Х. Дурбекнинг “Юсуф ва Зулайхо” достонида фолклор анъаналари ва новаторлик. Адабий мерос, 1974-й. №9, 15-22-бетлар.
7. Санаев И. Умид қанот бағишлайди // Шарқ юлдузи, 2000-й. №5-6, 64-65-бетлар.
8. Сулаймонова Ф. “Юсуф ва Зулайхо” достонининг Алишер Навоийга нисбат берилган Париж қўлёзмаси ҳақида. Адабий мерос, 1973-й. №3. 152-157-бетлар.
9. Фозилов Э., Лапасов Ж. “Юсуфу Зулайхо” достони ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974-й. №1, 24-28-бетлар.
10. Ҳайдаров С. Дурбек ижодини ўрганиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1961-й. №5, 50-52-бетлар.
11. Ҳасанов Н. “Қисаси Рабғузий”да Юсуф пайғамбар образи талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996-й. 193-бет.
12. Қуръон. Юсуф сураси // Шарқ юлдузи, 1990-й. 11-сон, 167-176-бетлар.

13. Шодиев Э. “Юсуф ва Зулайхони ким ёзган?” // Шарқ юлдузи, 1990-й. №7, 151-154-бетлар.
14. Юсуф алайҳиссалом қиссаси // Шарқ юлдузи, 1991-й. 12-сон.
15. Qobilov U. O‘zbek adabiyotida “Yusufnoma “ mavzusi: qiyosiy badiiy tahlil. “Sharq yulduzi” jurnali, -T.: 2015-y. 5-son, 45-51 betlar.
16. Qobilov. U. Dunyoviy mavzuning o‘zbek adabiyotidagi talqini // Xorijiy filologiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2014-yil, № 3, 39 – 46 betlar.